

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI



VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK
FAKULTETI

5410600 (5620600) – Zootexniya (turlari bo'yicha) va 5111015 (5140900) –
Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishlari talabalari uchun

MALAKAVIY AMALIYOTLARINI O'TASH UCHUN

USLUBIY DASTUR

SAMARQAND - 2012

Uslubiy dasturni nashrga tayyorlovchilar:

1. **Kaxarov A.K.** - Zootexniya, qorako'lchilik va kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishlari uslubiy kengashining raisi, professor, q.x.f.d.
2. **Yahyaev B.S.** - Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi kafedrasini mudiri, dotsent v.b., q.x.f.n.
3. **Shaptakov E.S.** - Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish kafedrasini mudiri, dotsent, q.x.f.n.
4. **Xolmirzaev D.X.** - Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish kafedrasini professori, q.x.f.d.
5. **Haydarov Q.H.** - Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi kafedrasini dotsenti, q.x.f.n.
6. **Amirov Sh.Q.** - Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish kafedrasini dotsenti, q.x.f.n.
7. **Chalabayev A.J.** - Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

1. **Sobirov P.S.** - Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish kafedrasini professori, q.x.f.d.
2. **Boboqulov N.A.** - O'zbekiston qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti direktori, q.x.f.d.

Uslubiy dastur 5410600 (5620600) - Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) va 5111015 (5140900)-Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishlarining 1,2,3 va 4 bosqich talabalari uchun mo'ljallangan. Unda amaliyotlarni tashkil qilishga oid barcha me'yoriy, o'quv uslubiy va daliliy manbalar bayon qilingan.

Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakultetining 2012 yil 27 avgustdagi № 1-sonli uslubiy Kengashida muhokama qilindi va maqullangan.

Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakultetining 2012 yil 29 avgustdagi № 1-sonli Ilmiy kengashida muhokama qilindi va maqullangan.

Samarqand qishloq xo'jalik instituti 2012 yil 30 avgustdagi № 1-sonli Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

M U N D A R I J A

	bet
1. Umumiy qoidalar	5
2. Amaliyotni tashkil etish va unga raxbarlikni amalga oshirish	5
3. Amaliyot natijalarini yakunlash	8
4. Amaliyot mazmuni	8
5. O'quv malakaviy amaliyot	9
 I-bosqich talabalarining o'quv amaliyoti	 10
Hayvonlar morfologiyasi fani	10
Zoologiya fani	15
Botanika va ozuqa yetishtirish fani	18
Genetika va biotexnologiya fani	20
 II-bosqich talabalari o'quv malakaviy amaliyoti	 21
Hayvonlar fiziologiyasi fani	22
Mikrobiologiya fani	23
Zoogigiyena fani	25
 III-bosqich talabalarining ixtisoslik malakaviy amaliyoti	 25
Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish fani.....	26
Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi fani.....	27
Zoogigiyena va veterinariya asoslari fani.....	28
Veterinariya akusherligi, genekologiyasi va sun'iy urug'lantirish fani	29
Qoramolchilik fani.....	30
Parrandachilik fani.....	30
Cho'chqachilik fani.....	31
Qo'ychilik va echkichilik fani.....	31
 IV-bosqich talabalarining bitiruv oldi texnologik malakaviy amaliyot	 32
Qoramolchilik fani.....	34
Parrandachilik fani.....	36
Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi fani	37
Yilqichilik va tuyachilik fani.....	37
Sutchilik fani	38
Cho'chqachilik fani	39
Asalarichilik fani	40
Qo'ychilik va echkichilik fani	41
Baliqchilik fani	41
Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va uning iqtisodiyoti fani	42

Hayot faoliyati xavfsizligi fani	42
Amaliyot xujjatlari va ularni yuritish tartibi	43
Hisobotni rasmiylashtirish	43
5111015 (5140900)-Kasbiy ta'limi (zootexniya) yo'nalishi talabalarining pedagogik-psixologik amaliyoti	44
O'qituvchi raxbarning vazifalari	49
Ilovalar.....	51

1. UMUMIY QOIDALAR

Talabalarning malakaviy amaliyotlarini o'tash uchun uslubiy dastur O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risda"gi Davlat Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga mos ravishda, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida"gi 305-sonli buyrug'idan kelib chiqadigan vazifalar asosida tayyorlangan. Uslubiy dasturda mazkur yo'nalishlar talabalarining malakaviy amaliyotini tashkil qilish shakllari, tartibi, vaqti va uslublari belgilangan.

1.1. Kadrlar tayyorlash tizimini islohini muvoffaqiyatli amalga oshirish eng avvalo oliy ta'limning barqaror va aniq maqsadli rivojlanishini ta'minlovchi, islohatlarni amalga oshirishning muayyan yo'l-yo'riqlarini qamrab olgan me'yoriy xujjatlarni, ya'ni amaliyot dasturini o'z vaqtida ishlab chiqish va tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, chorvachilikda mulk shakllari o'zgardi, ularning yo'nalishi va rivojlanishi turli shakllarda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklarni bir me'yorda rivojlantirish uchun ularga malakali kadrlar yetkazib berish kerak. Bo'lg'usi mutaxassislar chuqur nazariy bilimga ega bo'lishlari bilan bir qatorda yuqori amaliy malakaga ham ega bo'lishlari bugundagi kun talabi. Buning uchun nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayonida malakaviy amaliyotlari orqali mustahkamlash talab etiladi.

Har bir amaliyotning maqsadi, vazifasi mazmuni va o'tkazish muddati Davlat ta'lim standarti (DTS), fanlarning namunaviy dasturlari va ishchi o'quv rejalariga mos holda belgilangan.

2. AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA UNGA RAXBARLIKNI AMALGA OSHIRISH

2.1. Talabalarning malakaviy amaliyotlari belgilangan muddatda institut tomonidan, Respublika chorvachilik mahsulotlarini ichlab chiqaruvchilari uyushmasi, naslchilik inspeksiyasi; "Nasl-xizmat" uyushmasi hamda viloyatlar va tumanlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari, parrandachilik fabrika va fermalari, chorvachilikga ixtisoslashgan fermer va dexqon xo'jaliklari, asalarichilik, baliqchilik, qorako'lchilik yushmasi va qorako'lchilik shirkat xo'jaliklari hamda qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari bilan tuzgan shartnomalar asosida tashkil qilinadi.

2.2. Yuridik shaxslar va tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida ta'lim olayotgan talabalar amaliyotlarini o'tash uchun aynan shu obyektlarga yuboriladi.

2.3. Amaliyotlarni tashkil qilish va uni mavjud talablar asosida samarali ravishda o'tkazish institut rektori va fakultet dekani zimmasiga yuklanadi.

2.4. Amaliyotlar ikki tomonlama tuzilgan bitimlar asosida xorijiy mamlakatlarning chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash

korxonalarida, o'quv muassasalarida va turdosh tashkilotlarda ham o'tilishi mumkin.

2.5. Amaliyotlarni talab darajasida tashkil qilish maqsadida, institut:

- yakullanayotgan yilning 1 dekabridan kechikmagan holda, navbatdagi yangi kalendar yili uchun amaliyot obyektlari bilan shartnomalar tuzadi;
- amaliyot boshlanishidan 2 oy oldin talabalarning amaliyotni o'tash kalendar rejaları borasida, amaliyot o'tiladigan tegishli tashkilotlar bilan kelishib oladi;
- amaliyot raxbarlari etib, tajribali professor-o'qituvchilarni tayinlaydi;
- joylarda amaliyotga raxbarlik qilish, tegishli viloyat va tuman qishloq va suv xo'jalik boshqarmalari, "Nasl-xizmat" uyushmasi, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari xamda qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari zimasi ga yuklatiladi;
- fan yutuqlari, ilg'orlar tajribalari, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqish va uni qayta ishlashda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar xamda zootexniya sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar borasida maqsadli ma'ruzalar tashkil qiladi;
- barcha talabalar va amaliyot tashkil qilinadigan obyektlarni, amaliyotlar bo'yicha uslubiy dastur bilan ta'minlaydi;
- obyektlarda amaliyotni tashkil etish tartibi, muddati va mazmuniga rioya qilinishini xamda amaliyotni samarali ravishda o'tkazilishini nazorat qiladi.

2.6. Institut tomonidan tayinlangan amaliyot raxbarlari:

- talabalarning amaliyotiga zaruriy tayyorgarlikni tashkil etish uchun, obyektlarga amaliyot boshlanishidan oldin boradi va tashkiliy tadbirlarni (amaliyot o'tkazish tartiblari, texnika havfsizligi qoidalari haqida ko'rsatmalar berish va h.k) amalga oshiradi;
- kafedralar tomonidan talabalarga berilgan topshiriqlar va ko'zda tutilgan ilmiy tadqiqot ishlariga raxbarlik qiladi, ularning mehnat va maishiy xizmat sharoitlarining me'yor darajasida ta'minlanganligini nazorat qiladi;
- talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi;
- amaliyot natijalarini baholovchi komissiya ishlarida ishtirok etadi;
- talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi va ularning ishi bo'yicha taqriz beradi. Talabalar amaliyot o'tganligi, ularning amaliy tayyorgarligi, kamchiliklari va amaliyotni takomillashtirish to'g'risida takliflar kiritilgan yozma hisobotni kafedra mudiriga taqdim etadi.

2.7. Talabalar amaliyotining umumiy raxbarligi viloyat va tumanlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari, parrandachilik fabrikalari bosh zootexniklari va chorvachilikka iqtisoslashgan fermer xo'jaliklarining raxbarlari xamda qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlariining tegishli bo'lim boshliqlari zimmasiga yuklatiladi.

2.8. Amaliyot o'tash obyektlari shartnoma majburiyatlariga asosan:

- talabalar amaliyotini uning dasturiga muvofiq tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlaydi;

- talabalarni ish joyi bilan ta'minlaydi;
- bo'sh ish joylarini e'tiborga olgan holda, amaliyot o'tayotgan talabalarni tegishli ish haqi belgilangan lavozimlarga qabul qiladi;
- institut bilan kelishilgan holda oylik va kunlik ish jadvaliga amal qiladi;
- talabalarga mavjud adabiyotlar, zootexnikaviy xujjatlar va asbob-uskunalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi;
- bosqich ishi va malakaviy bitiruv ishlari uchun mavzular tanlash va ularning bajarilishga oid maslaxatlar beradi;
- hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kerakli ko'rsatkichlar beradi. Zarur bo'lgan hollarda talabalarni mehnat xavfsizligiga oid usullarni amalda ko'rsatadi va bu xaqda kerakli me'yoriy xujjatlarni rasmiylashtiradi;
- talabalarining mazkur amaliyot obyektida joriy qilingan ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlaydi va nazorat qiladi;
- ushbu xududda joylashgan boshqa chorvachilik muassasalariga birgalikda borib, ularning ishlab chiqarish texnologiyalari bilan talabalarni tanishtiradi;
- talabalarining amaliyot o'tash vaqtida zootexniklar uchun joriy qilingan shaxsiy ximoya vositalari, oziq-ovqat va boshqa kerakli anjomlar bilan ta'minlaydi;
- xo'jalikda va kollejdagi hayot faoliyati xavfsizligi ishining xolati, mavjud xonalar hamda rasmiy, me'yoriy, o'quv va uslubiy manbalar bilan tanishtiradi;
- shartnoma asosida talabalarining yashashi uchun sharoiti qo'lay yotoqxonalar bilan ta'minlaydi. Zarur bo'lganda turar joylarini ijaraga oladi;
- ichki mehnat intizomini buzgan talabalarga nisbatan jazo choralari ko'radi va bu xaqda institut rahbariyatiga xabar beradi;
- amaliyot davomidagi baxtsiz xodisalar uchun javobgarlikni to'liq o'z zimmasiga oladi.

2.9. Amaliyot davrida talaba:

- amaliyotlar bo'yicha ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi;
- amaliyotni o'tash obyektidagi ichki mehnat tartib qoidalariga bo'ysunishi;
- mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariya-gigiyenik qoidalarini o'rganishi va ularga qat'iy rioya qilishi;
- kundalik daftarini yuritishi, zootexniya va pedagogikaga xos maxsus hujjatlarni yuritishi;
- qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarining zoti va zotdorligini aniqlash, kelib chiqishi va mahsulotdorligi bo'yicha baholash, naslchilik ishlarini yuritish, ozuqa tayyorlash texnologiyasi va oziqlantirish kabi zootexnikaviy tadbirlarda ishtirok etishi;
- nazorat sog'im o'tkazish, sutni hisoblash va xo'jalikda dastlabki ishlov berish, tuxum mahsulotini hisoblash, hayvonlarni so'yishdan oldingi tirik vazni va so'yim ko'rsatkichlarini hisoblashda qatnashishi;
- zootvetinariya shaxobchalarini ishlash tartibi bilan tanishish, undagi barcha tadbirlarda ishtirok etishi;

- naslchilik xujjatlarni yuritish, keltirilgan urug'ni baholash va undan sun'iy urug'lantirishda to'g'ri va samarali foydalanishi;
- kollejda, yo'nalishiga oid fanlardan o'tkaziladigan darslarga qatnashishi va uni mustaqil xolda o'zi tashkil etishi;
- o'tkazilgan darsning namunaviy rejasining tahlili va unga oid tayyorlangan ko'rgazmali o'quv-uslubiy vositalarni taqdim etishi;
- kollejning ikki nafar o'quvchisiga pedagogik tavsifnoma tayyorlashi;
- zamonaviy texnik vositalardan foydalanishni bilishi;
- tarbiyaviy va tematik ish rejalari bilan tanishishi hamda ularni yuritishi;
- to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilishi, yozma hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi shart.

3. AMALIYOT NATIJALARINI YAKUNLASH

Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot obyekti tomonidan tayinlangan raxbar imzolagan kundalik daftari bilan birga oliy ta'lim muassasasidan tayinlangan raxbarga topshiradi. Hisobot, talabalarning amaliyot davrida bajargan muayyan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, amaliyot obyekti bo'limlarining qisqacha izohi (qishloq va suv xo'jalik boshqarmasi, fermer xo'jaligi, parrandachilik fermasi yoki fabrikasi, kollej xamda uning tegishli bo'limlari va boshqalar), ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyati xavfsizligi to'g'risidagi masalalar va amaliyot natijalari bo'yicha hulosasi va takliflarni o'z ichiga olishi lozim.

3.2. Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini institut tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi.

Amaliyot hisobotlarini himoyasi bo'yicha komissiya tarkibiga amaliyot o'tilayotgan fanlarni olib boruvchi o'qituvchilar, institut tomonidan tayinlangan raxbar (imkoni boricha amaliyot obyektidan berkitilgan raxbar ham) kiritiladi.

Amaliyot natijasining bahosi, talabaning bosqichdan-bosqichga o'tishida va unga stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

Amaliyotning yakuniy natijalari fakultet ilmiy kengashida muhokama qilinadi va tegishli baholanadi.

3.3. Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki, hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba o'z hisobidan qayta amaliyot o'tishga yuboriladi.

Ayrim hollarda, bunday talabaning kelgusida institutda o'qishni davom ettirish masalasi rektor tomonidan ko'rib chiqiladi.

4. AMALIYOT MAZMUNI

Zootexnik va kasbiy ta'lim (zootexniya) mutaxassislarini shakllantirishda amaliyot ikki pag'onada amalga oshiriladi:

1. O'quv-malakaviy amaliyoti.
2. Bitiruv oldi malakaviy amaliyoti.

O'quv malakaviy amaliyoti quyidagi fanlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda: hayvonlar morfologiyasi, zoologiya, botanika va ozuqa yetishtirish, genetika va biotexnologiya.

Ikkinchi bosqichda: hayvonlar fiziologiyasi, mikrobiologiya, zoogigiyena, hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi.

Uchinchi bosqichda: qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish, hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi, zoogigiyena va veterinariya asoslari, vetakusherlik, qoramolchilik, parrandachilik, cho'chqachilik, qo'ychilik va echkichilik.

To'rtinchi bosqich talablari o'quv rejasiga muvofiq bitiruv oldi malakaviy amaliyotini o'taydilar.

“Zootexniya” yo'nalishi to'rtinchi bosqich talabalarining bitiruv oldi malakaviy amaliyoti: qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va biznes reja, sut va go'sht qoramolchiligi, parrandachilik, qo'ychilik va echkichilik, yilqichilik, asalarichilik, cho'chqachilik, baliqchilik, mo'ynabop hayvonlarni urchitish, hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat va tabiat muxofazasi fanlarini o'z ichiga oladi.

Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishi talabalari yuqoridagilardan tashqari, mavzuni kasb-hunar kollejlarda yangi pedagogik texnologiyalari asosida o'quv rejasiga kirib tahlil qiladi.

5. O'QUV - MALAKAVIY AMALIYOTI

O'quv malakaviy amaliyot talabalarining o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlab, amaliy malakasini oshirishga va ilmiy tekshirish ishlariga jalb etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Amaliyot 1-2-3-bosqichlarda fakultet professor - o'qituvchilarining bevosita raxbarligida o'tkaziladi va uning rejasiga quyidagi vazifalar kiradi:

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asoslari bilan tanishish;
- hayvonlarni oziqlantirish va asrash bo'yicha malakasini oshirish;
- turli toifadagi chorvachilik xo'jaliklarda zootexnikaviy ishlarni tashkil etish va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish;
- hayvonlarni urchitish, oziqlantirish, zoogigiyena va veterinariya asoslari, iqtisodiyot, vetakusherlik fanlaridan olingan nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, zootexniya va naslchilikka oid xujjatlar bilan tanishish va ularni to'g'ri yuritish.

Barcha fanlar bo'yicha malakaviy amaliyot guruh shaklida, ayrim hollarda esa yakka tartibda o'tiladi. Amaliyot o'tilayotgan xo'jalikning ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda talabalar 3-7 nafardan iborat guruhlariga ajratiladi. Amaliyot raxbari, amaliyot boshlanishidan oldin uning rejasi va jadvalini tuzadi,

guruhning barcha talabalariga amaliyot mazmuniga monand umumiy yo'l-yo'riq beradi.

Kun tartibiga binoan, amaliyot o'tkaziladigan obyektlarda texnika xavfsizligi, tartib-intizom va odob-ahloq qoidalariga rioya qilish, ko'ngilsiz voqiyalarning oldini olish, amaliyot o'tayotgan har bir guruhga mazkur fan bo'yicha amaliyotning aniq vazifalarini berish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Amaliyot davomida muntazam ravishda yo'l-yo'riqlar berilib, havfli va zararli omillar, shuningdek, talabalarning salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi ekologik, sanitariya-gigiyenik omillar o'z vaqtida bartaraf etilib boriladi.

I-BOSQICH TALABALARINING O'QUV AMALIYOTI

“Zootexniya” yo'nalishi birinchi bosqich talabarlari, 2-chi o'quv semestrda 24 kun davomida “Hayvonlar morfologiyasi” fanidan 8 kun “Ekologiya” fanidan 6 kun “Botanika va ozuqa yetishtirish” fanidan 4 kun “Genetika va biotexnologiya” fanidan 6 kun, hamda kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishi birinchi bosqich talabarlari esa, “Hayvonlar morfologiyasi” fanidan 6 kun, “Zoologiya” fanidan 6 kun davomida o'quv malakaviy amaliyotini o'taydilar. Ushbu amaliyotda, talabalar hayvonot dunyosining sistematikasi, fauna va flora, xududda mavjud o'simlik turlarini aniqlash, hayvon turi, zoti va ularning umumiy biologiyasi, oziqa zahirasi va oziqa ishlab chiqarish texnologiyasi, chorvachilik fermasida ozuqa tayyorlash, hayvonlarni oziqlantirish va saqlash sharoiti bilan tanishadilar.

HAYVONLAR MORFOLOGIYASI fani (48 soat)

Hayvonlar morfologiyasi fanidan amaliyot a'zolarining tuzilishi, rangi, shakli, joylashishi (topografiyasi) va boshqa xususiyatlari yangi so'yilgan va tirik hayvonlarda ko'rsatiladi.

Amaliyot boshlanishidan oldin, o'qituvchi talabalarga amaliyotning mohiyati to'g'risida tushuncha berishi va tartib-qoidalar bilan tanishtirishi zarur. Guruh talabarlari 4-5 nafardan iborat kichik guruhlariga bo'linib, har qaysi kichik guruhga ilg'or talabalardan guruh boshlig'i tayinlanadi. Har bir kichik guruh ma'lum yo'nalishdagi ishlarni bajarib, keyinchalik ular bir-birlari bilan fikr almashadilar.

Kichik guruhlarining olib borgan ishlari o'qituvchi nazorati ostida bajariladi. Nazorat (so'rov) har kuni dars ohirida talabalar bilimini tekshirish bilan yakunlanishi maqsadga muvofiq.

Talabalar, o'quv amaliyoti uchun maxsus daftar, kundalik va albom yuritishlari kerak, kundalikda qilingan ishlar qayd qilinadi va hayvonlar a'zolarining rasmlari chiziladi.

Amaliyot talabalar bilimini tekshirish bilan yakunlanadi, bunda talabalardan kundalik va hisobot qabul qilinadi hamda sinov o'tkaziladi.

Tirik va o'lgan hayvonlar skeletining tuzilishi, tananing bo'linishi, bo'g'inlar va muskullar topografiyasi

Hayvonning boshidan boshlab uning dum umurtqalarigacha tanasining qismlari bo'linishini o'rganishlari kerak.

Hayvonning bosh qismi va miya bo'limini aniqlab, bu bo'limdagi qismlarni topish zarur. Miya bo'limida: ensa, tepa, peshona, quloq suprasi, chakka, qovoq qismi; yuz bo'limida: burun, ko'z orti qismi, hayvon tumshug'i, yuqorigi lab, pastki lab, iyak oblastlari, yon tomondan-yonoq lunj, katta chaynash muskuli va jag' osti qismlarini aniqlash kerak.

Ko'krak-bel qismida - yelka, ko'krak va to'sh qismlarini aniqlab, tirik hayvonda ko'rish, bel oblastida qanaqa a'zolar joylashishini, hayvonning qorin qismida qalqonsimon tog'ay, kindik shov va yonbosh qismlarini aniqlash zarur.

Oldingi va keyingi oyoqlarda.

Oldingi oyoqda dastavval yelka kamari (kurak suyagi) va oldingi oyoqning erkin harakat qiluvchi suyaklarining joylashishini topish zarur. Keyin kamar va erkin harakat qiluvchi suyaklar haqida tushuncha berish; uning chegarasi va topografiyasi haqida ma'lumot berish. Oldingi oyoq bo'g'inlari, ularning harakati, to'zilishi va topografiyasi.

Keyingi oyoqda ham, oldingi oyoq singari kamar (tos-chanoq) va erkin harakat qiladigan suyaklarning proyeksiyasini tirik hayvonda chizib ko'rsatish (o'rganish) va har xil turga mansub hayvonlarda, ularning joylashish topografiyasidagi farqi, keyingi oyoqdagi bo'g'inlar, ularning harakati, tuzilishi va topografiyasi e'tiborni jalb etish kerak.

Tanadagi muskullarning joylashishi va suyaklar bilan uzviy bog'lanishini o'rganish

O'qituvchi, talabalarga skelet muskullarining hayvon tanasini harakat qildirishdagi vazifalari to'g'risida tushuntirish bilan bir vaqtda hayvon tanasining muvozanat holatida (nafas olish-chiqarish, dum, quloq suprasi, kovoq, ko'z olmasi va boshqa a'zolarining harakati) muskullarda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi haqida axborot beradi.

Teri qoplamasi. O'qituvchi talabalarga teri qoplamasining morfofunktsional farqi va ahamiyatini tushuntirib, keyin hayvonlar saqlanayotgan joyning sharoiti va uning teri qoplamasi bilan aloqadorligi haqida gapirib beradi.

Sut bezining tuzilishi haqida gapirilganda uning topografiyasini anatomik qismlarining turli yoshdagi qishloq xo'jalik hayvonlaridagi farqini eslatib o'tish zarur. Keyin talabalar daftariga sut bezining (yelinni) rasmini chizishadi va hayvonlar yelinidagi so'rg'ichlar soniga e'tibor beriladi. Shuningdek, terining boshqa

xususiyatlari: junning tuzilishi, tiplari va tananing qaysi qismlarida qanday joylashganligiga e'tibor qilishadi.

Yumshoq tovon, shox va tuyoqning tuzilishi, shakli kuzatilib, hayvonlardagi tafovutlari aniqlanadi va rasmi daftarga tushiriladi.

Ovqat hazm qilish a'zolarining tuzilishi.

O'qituvchi, talabalar diqqatini eng muhim tizimlardan biri bo'lgan ovqat hazm qilish va nafas tizimiga qaratadi. Bularni chuqur bilish veterinariya mutaxassislari uchun naqadar muhim ekanligiga izoh beriladi.

Talabalarga ovqat hazm qilish tizimini tartibli ravishda bo'limlarga bo'lib o'rgatadi va uning funksional ahamiyatini aytib o'tadi. Keyin talabalar bo'r bilan qorin bo'shlig'ining oblastlarga bo'linishini chizib, a'zolar topografiyasini va ularni lotincha nomlarini yodga olishadi. Diafragma chegarasi ko'rsatiladi va bo'r bilan chizib belgilanadi. Keyin hazm qilish tizimi a'zolarining tuzilishi joylashish tartibiga ko'ra o'rganiladi:

1. Bosh bo'lim ichaklari.

Dastlab, talabalar diqqatini og'iz bo'shlig'i hosil bo'lishida ishtirok etadigan suyak va muskullarga jalb etiladi. Keyin lab, lunj, burun-lab oynasi, tanglay topografiyasi va tuzilishi o'rganiladi.

So'lak bezlari joylashishi (quloq oldi, jag' osti, til osti) qo'l bilan ushlab ko'riladi va chegarasi aniqlanadi.

2. Oldingi bo'lim ichaklari.

O'qituvchi, talabalardan oldingi bo'lim ichaklari (qizilo'ngach va oshqozon) haqidagi tushunchalarini so'rab va lotincha nomlarini esga keltirib, tirik hayvonda qizilo'ngach va oshqozon topografiyasini ko'rsatadi.

O'qituvchi, talabalardan oshqozon tiplari va kameralari haqidagi tushunchalarini so'rov o'tkazishi yo'li bilan aniqlaydi. Ko'p kamerali oshqozonda kata qorin, to'rqorin, qatqorin va shirdonning topografiyasiga va tuzilishiga alohida e'tibor beriladi.

3. O'rta (ingichka) bo'lim ichaklari.

O'qituvchi, talabalarining ingichka bo'lim ichaklari haqidagi tushunchalari va ularning lotincha nomlari to'g'risida bilimlarni aniqlaydi, ularning tuzilishi, vorsinkalari, shakli va ichak peristaltikasiga e'tibor qilinadi. Ichak devoridagi va ichak devoridan tashqarida (oshqozon osti bezi va jigar) joylashgan bezlarning ahamiyati haqida gapiriladi va ularning topografiyasi tirik hayvonlarda chizib ko'rsatiladi.

4. Keyingi (yo'g'on) bo'lim ichaklari

O'qituvchi talabalarni yo'g'on bo'lim ichaklari qaysi ichaklardan tashkil topganligi, shakli, tuzilishi, funksiyasi haqidagi tushunchalarini tekshiradi.

Yo'g'on ichaklari (ko'richak, chambar ichak, to'g'ri ichak) topografiyasi hayvonda bo'r bilan chizib ko'rsatiladi va ularni bir-biridan farqiga e'tibor beriladi.

Nafas tizimi. Talabalar har xil turdagi hayvonlarda ko'krak qafasining harakati, hayvonlarda bir daqiqadagi nafas soni, va burun-lab oynasi, burun bo'shlig'ining namligi, shilliq pardasining rangiga e'tibor qaratadi. Talabalar ko'krak bo'shlig'i chegarasini, o'pkaning topografiyasi va proyeksiyasini aniqlab, rasmini daftarga chizishadi. Shundan so'ng o'lgan hayvonlarning ko'krak qafasini ochib, turli hayvonlarda o'pkaning topografiyasi va bir-biridan farqi o'rganiladi, o'pka bo'laklariga e'tibor beriladi.

Ayirish tizimi a'zolari. Ayirish tizimi a'zolari, organizmda moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan keraksiz moddalarni tashqariga chiqarish vazifasini bajaradi.

O'qituvchi, talabalar e'tiborini siydik ayirish a'zolarida uchraydigan yetishmovchiliklar va tez-tez uchrab turadigan ba'zi patalogik o'zgarishlarga qaratadi. Keyin talabalardan siydik ayirish tizimi a'zolarini joylashish tartibi va funksiyasi so'raladi.

Buyraklar joylashishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

- a) simmetrik (cho'chqada);
- b) assimetrik (qoramol, qo'y, echki, ot).

Buyrak tiplari:

- a) ko'p bo'lakchali (delfin, ayiq);
- b) usti notekis ko'p so'rg'ichli (qoramol);
- v) usti tekis ko'p so'rg'ichli (odam va cho'chqa);
- g) usti tekis bir so'rg'ichli (ot, qo'y, echki, it).

Buyrakning tuzilishi (qismlari):

- 1. Siydik ajratuvchi yoki po'stloq qismi;
- 2. Chegaralovchi qismi;
- 3. Siydik chiqaruvchi yoki mag'iz qismi.

1. Erkaklik ko'payish a'zolari:

O'qituvchi, talabalar diqqatini ko'payish a'zolarining joylashish tartibi, ularning turli hayvonlarda topografiyasi, har bir a'zoning tuzilishi va ishiga qarab qanday taraqqiy etishini tushuntiradi. Keyin talabalar har xil hayvonlarda urug'don xaltasi, preputsional xalta hamda urug'don qanday xolatda joylashishini (vertikal, gorizontal) ko'zdan kechiradi va bo'r yordamida urug'don, urug'don ortig'i, jinsiy a'zo, perputsional xaltaning chegarasini aniqlab chiqishadi, o'lgan hayvonlar gavdasi preparovka qilib (yorib) o'rganiladi.

2. Urg'ochilik ko'payish a'zolari.

O'qituvchi, talabalardan urg'ochilik ko'payish a'zolari to'g'risidagi tushunchalarini so'raydi. Talabalar diqqatini a'zolarining tartibli ravishda joylashishi,

tuzilishi va topografiyasiga qaratadi. Keyin talabalardan tuxumdon, tuxum yo'li, bachadon, qin, qin dahlizi, tashqi uyat lablarining tuzilishidagi farqi, shakli, qaysi bo'shliqda joylashganligi so'raladi. Talabalar tirik hayvonda jinsiy a'zolari ko'zdan kechiradi va shilliq pardalarning rangiga e'tibor qiladi.

Qin oynasi yordamida qin, bachadon bo'ynini ko'zdan kechirishadi va o'lgan hayvonlarni preparovka qilib (yorib) o'rganadi.

Yurak-qon tomirlar tizimi. O'qituvchi talabalarning qon tomirlar tizimi haqidagi tushunchalarini aniqlaydi. Keyin ularning bilimlarini umumlashtirib, talabalar diqqatini yurakning tuzilishi, kameralari, klapan apparatlari, nerv tizimi hamda organizmdagi asosiy arteriya, vena, kapillyar qon tomirlari, katta va kichik qon aylanish doiralari to'g'risida tushuncha beriladi.

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- har xil hayvonlarda yurakning topografiyasini va yurak pulsini aniqlash;
- oganizmdagi yirik arteriya qon tomirlarini (jag' osti, yuz, dum, son va boldir arteriyalari) topish va pulsni aniqlash;
- organizmdagi yirik vena qon tomirlarini (bo'yintiriq venasi, teri osti venalari, sonning va boldirning teri osti venasi) aniqlash; qoramollarda sut venasi, sut qudug'ini ushlab ko'rish va uning kattaligi aniqlanadi.
- hayvonlarda yirik limfa tugunlari aniqlanib, ularning funksional ahamiyati haqida so'zlab beriladi. Talabalar o'lgan hayvonda qon tomirlarni (arteriya, vena), yirik limfa tugunlarini preparovka qilib, topografiyasini aniqlaydilar.

Asab tizimi. O'qituvchi, talabalarga asab tizimining ahamiyati, uning operativ xirurgiya, klinik diagnostika, ichki yuqumsiz kasalliklar, akusherlik kabi klinik fanlarni o'rganishdagi ahamiyatini ko'rsatib o'tadi.

Talabalar bo'r bilan tirik hayvonda markaziy asab tizimi (bosh miya va orqa miya) yelka, bel, dumg'aza chigali, oldingi va keyingi oyoq nervlari topografiyasini chizadilar va atrof nervlarining tarqalish yo'llari va innervasiyasi aniqlanadi.

Analizatorlar ta'sir qabul qilishiga qarab, ikki asosiy guruhga bo'linadi.

1. Ekstraretseptorlar - tashqi muhitdan aniq ta'sirotni qabul qiladi va markazga yetkazib beradi. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va muvozanat retseptorlari shular jumlasidandir.

2. Introretseptorlar - ichki ta'sirni, ya'ni a'zolar, to'qima va xujayralarning ish faoliyati vaqtida paydo bo'lgan har xil normal va patologik o'zgarishlarni aniqlab, markazga yetkazib beradi.

Quyidagi analizatorlar - ekstraretseptorlar organizmda farqlanadi:

- umumiy sezgi analizatorlari - terida, tananing hamma qismida sochilib joylashadi;
- hid bilish analizatorlari - burun bo'shlig'ining ichki shilimshiq qavatida joylashadi;

- ta'm biluvchi analizatorlari - tilni tam biluvchi surg'ichlari;
- ko'rish analizatorlari - ko'z olmasi, uning himoya va yorug'lik sindiruvchi a'zolarida joylashadi.
- eshitish analizatorlari - tashqi, o'rta quloq va ichki quloqda. Talabalar tirik hayvonda ko'z olmasini va uning himoya, yordamchi a'zolarini ko'zdan kechirishadi, ko'z olmasining oq moddasi, ko'zning to'r pardasi, ko'z qorachig'iga e'tibor qilishadi, yuqorigi, pastki, uchinchi qovoq, kiprik, ko'z konyuktivasi rangini, ko'z yosh bezini ko'zdan kechiradilar.

Talabalar, amaliyot davomida kundalik daftar yuritishadi, qilingan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlaydi. Kundalik daftar va hisobot amaliyotga raxbarlik qilgan o'qituvchi tomonidan kafedraga topshiriladi va o'quv amaliyotining hisoboti kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi.

ZOOLOGIYA fani (36 soat)

Amaliyotning maqsadi. Talabalarning hayvonot dunyosining sistematikasi, faunasi, turlar biologiyasi, ekologiyasi bo'yicha nazariy bilimlarini mustaxkamlash, maxalliy faunani o'rganish, umurtqasiz va umurtqali hayvonlarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish.

Amaliyotning dasturi. Talabalarga yerda, yer osti va suvda yashovchi umurtqasiz va umurtqalilarning tur tarkibini, jinsligini, biotop va biotsenozlarning xususiyatlarini, turli sistematik guruhlariga oid hayvonlardagi biotik bog'lanishlarni, hayvonot dunyosidan oqilona foydalanishning bioekologik asoslarini o'rgatish. Qishloq xo'jalik hayvonlari va odamlarda parazitlik qiluvchi antropozoonoz yoki parazitar kasalliklar qo'zg'atuvchilari va ularni tashuvchilarni, qishloq xo'jalik ekinlari zarurkunandalarini aniqlash. Har bir uchratilgan hayvonlar turlarini sistematikaga joylashtirish, sistematik tartibda faunistik ruyxat to'zib chiqish, ular orasida insonlar uchun foydalilarini ajratish. Talabalar amaliyot o'tish jarayonida tabiatda kechayotgan hodisalarni o'rganishga ham e'tibor qaratishlari zarur.

Amaliyot o'tiladigan joy. Dala o'quv amaliyoti, Samarqand qishloq xo'jalik institutining sport sog'lomlashtirish lagerida o'tkaziladi. Ushbu maskan Nurobod tumanining "Mehnatkash" qishlog'ida joylashgan. U tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lib, unda agrobiogeotsenozlar (o'zlashtirilgan maydonlar) bilan bir qatorda g'arbiy biogeotsenozlar saqlanib qolgan. Iqlimi keskin kontinental, yoz paytida kunduz kunlari issiq, kechalari esa o'ta salqin. Amaliyot o'tiladigan xudud shahardan 45 km uzoqlikda joylashgan.

Amaliyot o'tish uchun zarur anjomlar:

- ushlag'ich chulpi va karaxt qiluvchi idish (morilka);
- qisqich (pinset), qaychi, skalpel, igna;
- mikroskop, lupa, predmet va qoplovchi oynachalar;

- yig'ish va kolleksiya qilish uchun probirkalar, banka, stakancha, kolbalar;
- ekskursiya satilchalari, entomologik quticha, gidrobiologik to'r, hasharotlar qanotlarini tekislovchi moslama;
- aniqlag'ich qo'llanma.

Amaliyot davrida xavfsizlikni ta'minlash va zaharli hayvonlar bilan ishlash qoidalari:

- tog' cho'qqilariga yakka-yakka holda chiqish man qilinadi, toshloqlardan yurish o'ta xavfli, chunki mayda shag'al toshlar sirpanib ketishi va nurash hosil bo'lishi mumkin;
- ruxsat qilinmagan joyda cho'milish man qilinadi;
- amaliyot o'tadigan joyda zaharli ilonlardan: qalqontumshuq, kulvor ilon uchrab turadi. Bu ilonlarning zahari kuchli bo'lib, odamlarni chaqsa o'limga olib kelishi mumkin. Bunday zaharli ilonlarni ushlash qatiyan man qilinadi. Ilon chaqqan taqdirda chaqilgan joydan 5-10 sm yuqoriroqdan mahkam bog'lab qo'yib, tezda o'qituvchilarga yoki lager tibbiy xodimiga murojaat qilish zarur. Ilon chaqqan joylarni-kesish va qonni so'rib tashlash kat'iyan man qilinadi;
- ilonlardan tashkari bu zonada zaharli o'rgimchaksimonlardan: tarantul, chayon va qorakurt ham uchrab turadi. Ular bilan ishlagan vaqtda ham ehtiyot bo'lish talab qilinadi. Ularni albatta pinset bilan ushlash kerak. Bularning chaqishi hayot uchun u qadar xavfli bo'lmasada, og'riq va allergik reaksiyalarga sabab bo'lishi mumkin;
- marshrut davomida ushlangan yoki o'lik holda topilgan hayvonlarni (amfibiyalar, reptiliyalar, qushlar, kemiruvchilar) (preparovka) yorib o'rganish mutaxassis yoki o'qituvchi ishtirokida bajarilishi kerak. Aks holda har xil yuqumli kasalliklarni yuqtirib olish mumkin;
- amaliyot vaqtida o'qituvchi va tibbiy xodimlar ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish zarur.

Amaliyot dasturi. Malakaviy amaliyot zoologiya fanidan 4-6 kun davomida o'tiladi. Bu davrda talabalar amaliyot o'tadigan joyning geografik holati (o'rni) relyefning xarakteri bilan tanishadilar. Bir vaqtning o'zida bir necha guruhlar ishlashini e'tiborga olib, har bir guruhni bir vaqtning o'zida boshqa-boshqa biotop va biotsenozlarni o'rganishini ta'minlash kerak. Bu ishni amaliyot raxbarlari grafik tuzish usuli bilan hal qiladilar. Amaliyot vaqtida tubandagi biotsenozlar haqida ma'lumot to'plashi shart:

- suv havzalari (buloqlar, soylar) faunasi;
- o'tloq va butazorlar faunasi;
- toshloq va qiyalar faunasi;
- tog'oldi, cho'l zonasi faunasi;
- madaniy o'zlashtirilgan (agrotsenoz) zonasining faunasi;
- oxirgi kun yig'ilgan ma'lumotlar tartibg

a keltiriladi, tahlil qilinadi va amaliyot haqida hisobot yoziladi.

Amaliyot o'tish tartibi.

Birinchi kun. Talabalar kelib tushgan joy bilan tanishish. Guruhlarga texnika xavfsizligi to'g'risida tushuntirish. Talabalarni kun tartibi bilan tanishtirib chiqish. Suv biogeotsenozini o'rganish va uning faunasi bo'yicha material to'plash. Unda asosiy e'tiborni kamqilli chuvalchanglar, zuluklar, o'rgimchaklar, mollyuskalar, hasharotlarning lichinkalari, baliqlar va amfibiyalarni o'rganishga qaratish.

Ikkinchi kun. Tuproq va yer usti biogeotsenozini o'rganish.

Unda tuproq chuvalchanglari, go'ng qo'ng'izlari, urgimchaksimonlar (chayonlar, urgimchaklar, kanalar), chumolilar, mollyuskalar, turli umurtqalilarga e'tiborni qaratish.

Agrobiotsenozlar faunasini o'rganish:

- a) zararkunanda hasharotlar;
- b) foydali hasharotlar;
- v) hasharotxo'r qushlar.

Uchinchi kun. Qishloq xo'jalik parazitofanuasini o'rganish: a) kanalar; b) chuvalchanglar.

To'rtinchi kun. Yig'ilgan faunistik materiallarni aniqlash, etiketkalash, hisobot yozish.

Amaliyot quyidagi jadval asosida o'tkaziladi:

Amaliyot mazmuni	Soat	O'tkaziladigan joyi
Hayvonlarni sug'orish joylarida chuchuk suv xavzalarini tekshirib, uning faunasini aniqlab, bu joylarda boqilayotgan hayvon va parrandalar orasida turli kasalliklarni sodir bo'lishida botqoqli yaylovlarning rolini bayon etish. Bu joylarda parazitlar chuvalchanlarning oraliq xo'jayinlari bo'lgan mollyuskalar va boshqa umurtqasizlarni o'rganish.	6	Chorvachilik fermalari, shaxsiy mollarni sug'orish joylari.
Qishloq xo'jalik hayvonlarining turli infeksiya va invazion kasallik qo'zg'atuvchilarini tashuvchilari bo'lgan quruqlikda yashovchi umurtqasiz hayvonlarni tekshirib, ularni faunasini aniqlash. Molxonalar, uy hayvonlari tanasi, yaylovlar va pichanzorlardan turli kanallarni terish va ular orasida gemosporidiaz kasalliklari qo'zg'atuvchilarining	6	Qishloq xo'jalik hayvonlari saqlanadigan joylar

tashuvchilarini aniqlash. Doimiy parazitlik qiluvchi kanallarni topish		
Yumaloq chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'inoyoqlilarning turlari va xordalilar tipiga mansub sinf vakillarini (baliqlar, quruqlikda hamda suvda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, parrandalar va sut emizuvchilar) vakillarini o'rganish.	6	Qishloq xo'jalik hayvonlari saqlanadigan joylar
Biotoplarni topib ularni yashash muhitlarini aniqlash. Foydali va zararli hayvon turlarining biotoplarini topib, ularni yashash muhitlarini aniqlash.	6	Yer yuzasi, buloq va chashma suvlari
Foydali va zararli hayvon turlarini aniqlash, bunda ularning foydali va zararli tomonlari nimalardan iborat ekanligi bayon etish.	6	Turli biotoplar
Amaliyotni yakunlash	12	

BOTANIKA VA OZUQA YETISHTIRISH fani (24-soat)

Botanika va ozuqa yetishtirish fanidan o'tkaziladigan o'quv-dala amaliyoti o'simliklar qoplami yaylov o'simliklari, buta va chala buta o'simliklari, zararli va zaharli o'simliklarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalar o'simliklar qoplami bilan tanishadilar.

Talabalar o'simliklar qoplamini o'rganish jarayonida yovvoyi hamda o'suvchi zaxarli, zararli, madaniy va begona o'tlarning hayoti va ularning tarqalishi doimo muhim geografik hamda ekologik sharoitlar ta'sirida borishini bilib oladilar. Shuningdek, ular o'simliklar qoplami iqlim, tuproq, relyef, ayni joyning geologik tuzilishi va hayvonot olami bilan bog'liq ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

O'simliklar qoplami bilan bevosita tanishganda talabalar yovvoyi va madaniy o'simliklarning ma'lum xo'jalik ahamiyatiga ega ekanligi, ulardan yem-xashak uchun foydalaniladigan o'simliklarni chorva mollari uchun ahamiyatini o'rganishni ilmiy asosda amalga oshirish mumkinligiga ishonch hosil qiladilar.


Guruh tarzida o'tkaziladigan sayohatlar bilan bir qatorda amaliyot davomida talabalarning individual holdagi mustaqil ishlariga ham katta e'tibor berilishi lozim. Buning uchun yozgi amaliyotga qo'shimcha ravishda umumiy mavzularga bog'liq bo'lgan maxsus individual mavzular ham bajarilishi kerak.

O'QUV JIHOZLARI VA ASBOB-USKUNALAR

Dalaga chiqishdan oldin tegishli asbob-uskunalar zarurligini esdan chiqarmaslik kerak. Tabiatdagi sayohat vaqtida o'simliklarni yig'ish uchun gerbariy

papkasi, gerbariy setkasi, gazetalar (yoki boshqa xil qog'ozlar), etiketkalar, tesha, bog' qaychi, dala daftari, oddiy qora qalam, oddiy lupa mikroskop va boshqalar kerak bo'ladi (1-rasm).

O'simliklarni tasvirlash uchun yuqorida ko'rsatilgan asbob-uskunalaridan tashqari kompas, karta, 10 m uzunlikdagi ruletka (namuna maydon konturini o'lchash uchun), o'tlarning bo'yini o'lchash uchun chizg'ich, daraxtlarning balandligini aniqlash uchun uchburchak shakldagi chizg'ich hamda ularning diametrini o'lchash uchun shtangensirkul kerak bo'ladi.



1-rasm. O'simliklarni yig'ish va quritish uchun asboblari (*a* – o'simlik yig'iladigan papka, *b* – sim taxtacha (press), *v* – kovlagich pichoq, *g* – teshacha).

Kechki mashg'ulotlar vaqtida materiallarni tahlil qilish uchun aniqlagichlar, o'simliklarni quritish uchun quruq qog'ozlar, o'simliklarning organlarini to'g'rilash va tasvirlash uchun preparoval ninalar, ildizpoya va piyozboshlarni kesish uchun pichoq yoki skalpel, gullar tuzilishini o'rganish uchun lupalar, millimetrlarga bo'lingan chizg'ich, vatman tipidagi qog'ozlar, yelim, ip va ninalar, doimiy etiketkalar uchun oq qog'oz, siyoh, ruchka, tush, o'chirg'ich va boshqa jihozlar kerak bo'ladi.

Kundalik daftar tutish. Talabalar o'quv-dala amaliyoti davomida kundalik daftar tutadilar. Daftarga sayohat va kechki laboratoriya mashg'ulotlari davomida bajarilgan ishlar, chunonchi: o'qituvchining kundalik suhbat, tushuntirishi, talabaning mustaqil kuzatish ishlari, o'simlikning biomorfologik tuzilishi hamda tasviriga doir ma'lumotlar va boshqalar yozib boriladi.

Kundalik sifatida oddiy daftar yoki bloknot tutiladi. Talabalar unga sayohat paytidagi tahlillarni yozishi va rasmlarni chizib borishi mumkin. Masalan, o'tloqlarni o'rganishda u yerdagi kampirchopondoshlarining tashqi ko'rinish sxemalari (ildiz, poya, barg tuzilishi, bargning poyada joylashishi) va turli oilalarning tuzilishi qayd etiladi. Rasmlar oddiy qalam yordamida chizilib, tagiga belgilari aniq yozilgan bo'lishi kerak.

Shuningdek, ozuqa ekinlari yetishtirishning texnologik xaritasini tuzadilar.

Texnologik xarita shakli, o'simliklarni aniqlashga yordamchi jadvallar o'qituvchi tomonidan taqdim etiladi.

Hisobot yozish. Hisobot o'quv-dala amaliyotining yakunlovchi hujjati bo'lib, u guruh a'zolarining birgalikda yozgan ijodiy ishi hisoblanadi.

Hisobot ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda o'quv-dala amaliyotining maqsadi va dasturiga doir qisqacha ma'lumotlar, amaliyot o'tilgan hududning qisqacha tabiiy geografik sharoiti. Hisobotning ikkinchi qismida esa o'tkazilgan sayohatlar va o'rganilgan tabiiy o'simliklar, yem-xashak o'tlari, ekiladigan yem-xashak o'tlari va ularning ba'zilarini (adabiyotlardan foydalanib) yetishtirish texnologiyalari va boshqalar bayon etiladi. Hisobotning tahminiy rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. O'quv-dala amaliyoti o'tkazilgan hududning qisqacha tabiiy geografik xususiyati (iqlimi, tuprog'i, relyefi va hokazo).

2. Hududdagi asosiy o'simlik qoplami.

2.1. Chorva mollari tomonidan yeyiladigan o'tlar;

2.2. Buta va chala buta o'simliklari;

2.3. Zararli o'tlar;

2.4. Zaharli o'tlar.

3. O'quv-dala amaliyoti o'tilayotgan hudud o'simliklarini chorva mollari uchun ahamiyati hamda qishloq xo'jalik faoliyatiga ta'siri.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

GENETIKA VA BIOTEXNOLOGIYA fani (36 soat)

Amaliyotning maqsadi: Olingan nazariy bilimlarni amalda mustaxkamlash. Chorvachilikning nazariy asosi hisoblangan genetika fanining usullarini chorva mollarini urchitish borasida qo'llanilishini kuzatish.

Amaliyotning vazifalari: Genetika va biotexnologiya fanidan o'tkaziladigan o'quv amaliyotida qo'yidagilar e'tiborga olinadi:

- mamlakat ekologik sharoitida urchitilayotgan chorva mollari va parrandalarining genofondi bilan tanishish;
- hayvonlar va parrandalarining yangi zot, tip, zot guruhi, tizim (liniya) va oilalarini yaratishda qo'llaniladigan genetik va seleksion usullar bilan tanishish;
- laboratoriya hayvonlarini va meva pashshasini (drozofila) chatishtirish yo'li bilan irsiy belgilarining naslga berilish jarayonini tahlil qilish;
- har xil turga mansub bo'lgan qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarining mahsulotdorlik bo'yicha genetik potensialini yuzaga chiqarishda ta'sir etadigan omillarni tahlil qilish;
- har xil turga mansub bo'lgan qishloq xo'jalik hayvonlarining qon omillarini (sistema, guruh, antigen, antitela) o'rganish;
- chorva mollari va parrandalarining kariotiplari bilan tanishish;
- nasl mahsuloti (urug', zigota, embrion va h.k) ni olish, saqlash va ko'chirish jarayonlari bilan tanishish;
- qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarni xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishning genetik va fenotipik omillarining samarali usullarining tahlili;

- chorva mollari va parrandalarni miqdor va sifat belgilarining naslga berilish xususiyatlari bilan tanishish;
- genetik kelib chiqishi turlicha bo'lgan hayvon va parrandalarning ma'lum bir ekologik sharoitda iqlimlashish xususiyatlarining tahlili;
- xar xil turga mansub bo'lgan hayvonlarni fe'l-atvor (etologiya) ko'rsatkichlarini xronometraj yordamida o'rganish.
- chorvachilikda biotexnologik usullardan foydalanish yo'llari bilan tanishish.

Amaliyotni tashkil qilish obyektlari. Fakultet vivariysi, SamDU "Genetika" laboratoriyasi, O'zbekiston qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, parrandachilik fabrikasi, qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer va dexqon xo'jaliklari.

Amaliyotni o'tkazish tartibi. Amaliyot boshlanishdan oldin, amaliyot rahbari talabalarga amaliyotning mohiyati to'g'risida tushuncha beradi va uni o'tkazish qoida-qonunlari bilan tanishtiradi. Guruh talabalari 5-6 nafardan iborat bo'lgan kichik guruhlariga bo'linib, ma'lum bir yo'nalishdagi ishlarni boshqarishadi. Bundan tashqari har bir kichik guruh o'zaro fikr almashib, o'rgangan masalalarini tahlil qilishadi. Qilingan ishlar amaliyot rahbarining bevosita nazoratida bo'ladi.

Amaliyot uchun kerakli manbalar va uskunalar. Turlar bo'yicha hayvon va parrandalar, mikroskop, lupa, predmet va qoplovchi oynachalar; sekundamer, rasm apparati, jadvallar, rasmlar, urchitish sxemalari, albomlar, naslchilik xujjatlari, elektrhisoblagich va h.k.

O'quv amaliyoti bo'yicha talabalar maxsus daftar va kundalik yuritishlari shart. Talabalarga rasmga tushurish apparatlari bo'lsa maqsadga muvofiqdir, chunki har xil turga va zotga mansub hayvonlarni rasmga tushurib tahlil qilish, talabalarning zootexniya borasidagi amaliy ko'nikmasini mustaxkamlaydi.

Amaliyot, talabalarning bilimini suxbat tarzda tekshirish bilan yakunlanadi, bunda talabalardan kundalik va amaliyot to'g'risida qo'shimcha hisobot talab qilinadi.

II- BOSQICH TALABALARI MALAKAVIY AMALIYOTI

5410600 (5620600) - Zootexniya (turlari bo'yicha) va 5111015 (5140900) – Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishlari, II-bosqich talabalari 4-chi o'quv semstrida 4- xafta davomida: "Hayvonlar fiziologiyasi" (6 kun), "Mikrobiologiya" (6-kun), "Zoogigiyena" (6-kun) va "Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi" (6-kun) fanlaridan malakaviy amaliyot o'taydilar.

Talabalar, bu amaliyotlar davomida hayvonlar organizmining fiziologik holatini o'rganib, klinik, gemotologik, serologik, mikroskopik, bakteriologik va immunologik kabi ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirishlar o'tkazish usullari bilan tanishadilar. Bundan tashqari, turli toifadagi chorvachilik xo'jaliklarida hayvonlarni saqlash, boqish va oziqlantirish sharoitlarini tahlil qiladilar. Ozuqabop ekinlar

to'g'risida va ozuqa xillari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib, oziqlantirish texnologiyasini takomillashtirish usullaridan xabardor bo'ladilar.

Amaliyot, chorvachilikka ixtisoslashgan ilg'or fermer va dexqon xo'jaliklarida va mahsulotni qayta ishlash kichik sanoat korxonalarida tashkil qilinadi.

HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI fani (36 soat)

Yuqori malakali zootexniya mutaxassislarini tayyorlashda "Hayvonlar fiziologiyasi" fanining ahamiyati katta. Bu fan barcha biologik va umumkasbiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda hayvonlarning fiziologik ko'rsatkichlarini hamda fiziologik jarayonlarning mohiyatini o'rgatib, undan chorva mollari sog'ligini ta'minlash, mahsuldorligini oshirish va ularning yangi ekologik sharoitda foydalanish zaminini yaratadi.

Amaliyotning maqsadi:

- a) talabalarining nazariy bilimlarini boyitish va mustahkamlash;
- b) qishloq xo'jalik hayvonlarining fiziologik ko'rsatkichlarni to'g'ri aniqlash va ularning ahamiyatini chuqurroq bilish.

Amaliyotning hajmi. «Hayvonlar fiziologiyasi» fanidan amaliyot 6 kunga (har kuni 6 soatdan 36 soatga) mo'ljallangan bo'lib, Samarkand qishloq xo'jalik institutining vivariysida, o'quv tajriba xo'jaligi va chorvachilik fermer xo'jaliklarida o'tkaziladi.

Amaliyotni o'tkazish tartibi. Har bir amaliy mashg'ulot 6 soatga mo'ljallangan bo'lib, har bir guruh talabalari 3-4 tadan kichik guruhlarga bo'linadi va navbati bilan kafedra o'qituvchilarining raxbarligida berilgan mashg'ulot vazifalarni bajaradi. Olingan natijalar bo'yicha hulosa qilinadi.

Amaliyotni o'tkazish vaqtida har bir talaba kafedra o'qituvchilari tomonidan yozilgan va chop etilgan uslubiy ko'rsatmalardan foydalanadi. Ana shunda amaliyot bo'yicha qo'yilgan vazifalarni har bir talaba to'liq bajarishga erishadi.

Amaliyot hisobot bilan yakunlanadi va reyting tizimi asosida baholanadi.

Amaliyot quyidagi jadval asosida o'tkaziladi:

№	Mashg'ulotlarning		Hajmi, soat
	M a v z u s i	V a z i f a s i	
1	Qishloq xo'jalik hayvonlarining qon guruhlarini aniqlash	a) qon olish usullari bilan tanishish; b) har bir talaba o'zi mustaqil ravishda bir necha tur hayvonlardan qon olib o'rganish;	6

		v) qishloq xo'jalik hayvonlarining kon guruhlarini aniqlashni o'rganish.	
2	Yurak urishi, nafas soni va tana haroratini aniqlash	Qishloq xo'jalik hayvonlarida: a) yurak urishi sonini aniqlash va uning ahamiyatini o'rganish; b) nafas sonini aniqlash va ahamiyatini o'rganish; v) tana haroratini o'lchash va ahamiyatini o'rganish; g) olingan natijalar bo'yicha jadval tuzish, diagramma chizish va xulosa qilish.	6
3	Kavshovchi hayvonlarda kavsh qaytarish soni va ahamiyatini o'rganish	a) kavsh qaytarish haqida tushunchaga ega bo'lish; b) kavshovchi hayvonlarda kavsh qaytarish sonini va davom etish vaqtini aniqlash; v) kavsh qaytarishni sutkaning turli davrlariga (ertalab, tush payti, kechqurun) va oziqalarning turlariga bog'liqligini o'rganish; g) olingan natijalar bo'yicha jadval tuzish, diagramma chizish va hulosasi qilish.	6
4	Qishloq xo'jalik hayvonlarida laktatsiya davrini o'rganish	a) laktatsiya haqida tushunchaga ega bo'lish; b) qishloq xo'jalik hayvonlarining laktatsiya davrini aniqlash; v) turli hayvonlarda sut berish vaqti, miqdori va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish; g) olingan natijalar bo'yicha jadval tuzish va hulosasi qilish.	6
5	Qishloq xo'jalik hayvonlarining hulq atvorini o'rganish	a) Qishloq xo'jalik hayvonlarining hulq-atvorini o'rganish; b) olingan natijalar bo'yicha hulosasi qilish.	6
6	Qishloq xo'jalik hayvonlarining nerv tiplarini o'rganish	a) qishloq xo'jalik hayvonlarining nerv tiplarini I.P.Pavlov bo'yicha aniqlash va ularning ahamiyatini o'rganish; b) olingan natijalar bo'yicha hulosasi qilish.	6

MIKROBIOLOGIYA fani (36 soat)

Amaliyotning maqsadi: institutda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga xo'jalik sharoitida tekshirish uchun patologik material olish va uni laboratoriyada mikroskopik, bakteriologik va immunologik tekshirish usullari bilan tanishish.

Amaliyotning mazmuni. Talaba xo'jalik sharoitida veterinariya xizmatining tuzilishi, shtatlar, veterinariya hujjatlari va hisobotlari bilan tanishadi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tadbirlarini rejalashtirish bilan tanishish. Mastit, metrit, abscess, flegmona va boshqa yaralardan patologik material olish tartibi, uni konservatsiya qilish, joylash va yo'llanma hujjatlarini to'ldirish, laboratoriyaga jo'natish qoidalarini o'zlashtiradi.

Xo'jalikda, molxonalarda va boshqa chorvachilik binolarida, bozorlarda va sog'ish jihozlarida o'tkazilgan dezinfeksiyalashning sifatini aniqlash uchun va uni sanitar bakteriologik baholash uchun patologik material olish, laboratoriyaga yuborish usullarini o'zlashtiradi.

Yem-xashaklar, silos, senaj va boshqa oziqalardan namuna olish va sifatini aniqlash uchun laboratoriyaga yuborishni o'rganadi.

Hayvonlar suv ichadigan turli idishlar, vodoprovod, ochiq suv havzalaridan namunalar olish va ularni sanitariya-bakteriologik tekshirish uchun laboratoriyaga yuborish bilan tanishadi.

Laboratoriya sharoitida talaba qo'yidagilarni o'zlashtirishi lozim:

- veterinariya laboratoriyasining tuzilishi, bo'limlari, shtatlari va boshqalar bilan tanishadi;

- laboratoriyada yurgiziladigan hujjatlarni to'lg'izish, hisobotlarni tuzish, ish xaqi masalalari bilan tanishadi;

- bakteriologik va serologik bo'limlarda ishlash qoidalari bilan tanishish.

Bakteriologik bo'limda talaba quyidagilarni bajarishi kerak:

- a) shtatlar, jihozlar, asbob-uskunalar bilan tanishish;

- b) xo'jalikdan yuboriladigan patologik materialni qabul qilish tartibi bilan tanishish;

- c) sut, go'sht, tuxum va ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni mikrobiologik tekshirish;

- d) bakteriologik tekshirishda: (kuydirgi, saramas, brutsellyoz, kolibakterioz, salmonellyoz va boshqalar) mikroskopik sof kultura ajratish, bioproba qo'yish.

Serologik bo'limda talaba quyidagilarni bajarishi kerak:

- a) shtatlari, yuritiladigan hujjatlar va jihozlar bilan tanishish;

- b) agglyutinatsiya reaksiyasini (AR) o'tkazish tartibi;

- v) komplement bog'lash reaksiyasi (KBR) o'tkazish tartibi;

Rozbengal namunasi va pretsipitatsiya va boshqa reaksiyalarni qo'yish natijalarini o'qish va hisobga olish.

Kuydirgi va brusellyoz kasalliklarida qo'llaniladigan serologik tekshirishlar bilan tanishadi va boshqalar.

ZOOGIGIYENA fani (36 soat)

Malakaviy amaliyot davrida talaba institutda olgan nazariy bilimlarini mustaxkamlashi uchun xo'jalikka borgandan keyin chorvachilik fermasi yoki parrandachilik xo'jaligining bosh rejasi, chorvachilik binolari, ozuqa omborlari, oziqa tarqatish, oziqlantirish, sug'orish usullari, veterinariya-sanitariya jixozlari, veterinariya punkti, chorva mollarini saqlash, oziqlantirish, sug'orish, parvarishlash usullari xamda fermaning loyihasi bilan tanishadi. Molxonalarda mikroiklim ko'rsatkichlarini aniqlash, havo, suv, tuproq va oziqalarni gigiyenik baholash usullarini; chorva mollari va parrandalarni saqlash, oziqlantirish, sug'orish usullarini; ozuqalar turlari to'yimlilik va sifati haqida.

Molxonaning asosiy qismlari qaysi qurilish materiallaridan qurilganligi va mikroiklim ko'rsatkichlarini aniqlash tartibi o'rganiladi. Molxonaning ichki jixozlari, hayvonlar turadigan joy, oxur, ozuqa yo'li, go'ng yo'li, binoning o'lchamlari, xajmi o'rganilib gigiyenik tomondan baho beriladi. Molxonalarda ventilyatsiya, issiqlik balansi yorug'likni hisoblash yo'llari o'rganiladi. Molxonadagi xarorat, namlik, havoning harakat tezligi, yorug'lik, zararli gazlar miqdori, chang va mikroblar soni aniqlanadi. Go'ngni chiqarish, saqlash, zararsizlantirish usullari bilan tanishadi. Xo'jalikda tayyorlangan ozuqalarni saqlash, sifatini baholash, suv manbalari, sug'orish usullari va suv bilan ta'minlash yo'llari aniqlanadi.

Xo'jalikda chorvachilik fermasining bosh rejasi, fermadagi kun tartibi, hayvonlarni saqlash, oziqlantirish, sug'orish, fermani suv bilan ta'minlash, molxonada ventilyatsiya, kanalizatsiya, yoritish, molxonani go'ngdan tozalash, go'ngni saqlash va hisoblash usullari, molxonada mikroiklim ko'rsatkichlarini (harorat, namlik, bosim, havoni harakat tezligi, yorug'lik, zararli gazlar, chang va mikroblar miqdori) aniqlash, veterinariya-sanitariya kuzatuv punkti, dezobaryerning tuzilishi, dezinfeksiya, dezinfeksiya va deratizatsiya o'tkazish bilan tanishish.

III- BOSQICH TALABALARINING MALAKAVIY AMALIYOTI

5410600 (5620600) - Zootexniya (turlari bo'yicha) yo'nalishi III- bosqich talabalari 6-o'quv semstirida "Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchish" (6-kun), "Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi" (6-kun), "Zoogigiyena va veterinariya asoslari" (6-kun), Vetakusherlik (6-kun) hamda 5111015 (5140900) - Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishlari talabalari esa "Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish" (4-kun), "Vetakusherlik" (3-kun), "Qoramolchilik" (5-kun), "Parrandachilik" (3-kun), "Cho'chqachilik" (2-kun) xamda "Qo'ychilik va echkichilik" (4-kun) fanlaridan malakaviy amaliyot o'taydilar. Talabalar, amaliyot davomida zootexniya ixtisosligiga oid ishlar bilan tanishadilar, ular qishloq xo'jalik hayvonlarini va parrandalarni turi, zoti, zotdorligi, tizimi (liniya), tipi, zot guruhi va

oilalarga to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar. Hayvon va parrandalarni oziqlantirish xususiyatlari, oziqa turlari ularni tayyorlash texnologiyasi, hayvonlarni boqish va asrash molxonalarda mikro va makroiqlimning zoogigiyenik me'yorlari bilan tanishadilar. Hayvonlarni fiziologik statusi va unga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qiladilar. Sigirlarni va qorako'l qo'ylarini sun'iy urug'lantirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganadilar. Chorva mollarni urchitish asoslari (sof zotli urchitish, chatishtirish, duragaylash) ni o'rganadilar. Xar xil turga mansub chorva mollari va parrandalarni xo'jalik foydali belgilariga oziqlantirish va asrash sharoitini ta'sirini tahlil qiladilar.

Amaliyot davomida har bir talaba alohida kundalik tutib, barcha ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni qayd qilib boradi. Ana shu kundalik asosida amaliyot oxirida hisobot yoziladi. Betlangan, shnurlangan va dekanat muxri bilan tasdiqlangan kundalik xo'jalik tomonidan tayinlangan amaliyot raxbari tomonidan imzolanib muxrlanishi kerak. Amaliyot yakunida talaba barcha zootexnikaviy jarayonlar aks ettirilgan hisobot yozib, uni dekanat tomonidan tuzilgan maxsus komissiya yig'ilishida ochiq himoya qiladi.

QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI URCHITISH fani (36 soat)

Amaliyotning asosiy maqsadi: talabalarni, qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish fanidan olgan nazariy bilimlarni har xil turga mansub chorva mollari va parrandalarni amalda tahlil qilish orqali boyitish va mustaxkamlashdir.

Amaliyotning mazmuni:

- talabalar hayvonlar mahsulotdorligini dastlabki hisobga olishni tashkil qilish va o'tkazish, hayvonlarni mahsulotdorligi bo'yicha baholash, mahsulotdorlikni hisobga olish bo'yicha zootexnik xujjatlar bilan tanishish kabi ishlarni amalga oshirishadi;

- hayvonlarni eksteryeri bo'yicha baholashni tashkil qilish va o'tkazish (o'lchovlar asosida, rasimga tushirish yo'li bilan). Yosh buzoqlarning tug'ilgandan, birinchi qochirish yoshigacha o'sishi va rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida nisbiy va mutloq o'sishni, ozuqaga haq to'lash, tirik vazni bo'yicha standart talabiga javob berishni aniqlash;

- jinsiy yetilishi, urg'ochi va erkak hayvonlarni bir-biridan ajratish, birinchi qochirish, naslchilik kartochkalarini yuritish va to'ldirib borish, hayvonlarning kelib chiqishiga qarab baholash, qarindoshlik juftlashishni aniqlash, zotdorlikni belgilash, bonitirovka qaydnomasini to'ldirish, bonitirovka bo'yicha qo'shimcha qaydnomani to'ldirish, bonitirovka ma'lumotlarni tahlil qilish;

- bonitirovka ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan tadbirlarni tahlil qilish;

- hayvonlarni juftlash rejasini tuzish va uning uslubiyati bilan tanishish;

- xujjatlarni yuritish va to'ldirish (tug'ish va qochirish rejasini);

- naslchilik ishining rejasi bilan tanishish va uni tuzish uslubiyatining tahlili;
- davlat naslchilik kitobiga yozish tartibini talabalarga o'rgatish va kitobga yozish uchun xujjatlarni tayyorlash;

Amaliyot obyekti: har xil toifadagi chorvachilik xo'jaliklari, parrandachilik fabrikalari, asalarichilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar va qorako'lchilik shirkat xo'jaliklari.

Amaliyotga kerakli uskunalar va o'quv vositalari.

Hayvonlarni o'sish va rivojlanishi, hamda evolyusiyasi to'g'risida ma'lumotlar, tarqatma jadvallar, hayvonlarning eksteryeri va konstitusiyasini o'rganish borasidagi albomlar, o'lchov tayog'i, o'lchov sirkuli, lenta, tarozi, rasm apparati va h.k.

Amaliyot, davrida talabalarning yozib borgan kundaligi asosida tayyorlangan hisoboti, dekanat tomonidan tuzilgan maxsus komissiyada himoyasi bilan yakunlanadi.

HAYVONLARNI OZIQLANTIRISH TEXNOLOGIYASI fani (36 soat)

Malakaviy amaliyotni o'tashdan asosiy maqsad talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, chorva mollari va parrandalarni oziqlantirishning ahamiyatini o'rganish va oziqlantirish sohasidagi yangiliklar joriy etilishini kuzatishdan iboratdir.

Talabalar amaliyotni o'tash jarayonida qo'yidagilarga e'tibor beradi va bajarilishida ishtirok etadi:

Mazkur xo'jalikdagi mavjud mollar soni (turi, zoti, zotdorligi, yoshi, mahsulotdorligi, jinsi) ozuqa bazasining xolati, ozuqa rejasi va balansi hamda oziqlantirishning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar, jamg'arilgan ozuqalarning sifat ko'rsatkichlarini organoleptik usul bilan aniqlashni (silos, senaj, ildiz mevali omuxta yem, kuchli va dag'al ozuqalar sifatini xo'jalik sharoitida baholashni) o'rganish.

Yem ozuqalar ombor zararkunandalari bilan zararlanish darajasini tekshiradi. Xo'jalikda jamg'ariladigan ozuqa g'aramlari, bostirilgan silos va senaj miqdorlarini o'lchash yo'li bilan aniqlash. Dag'al va boshqa turdagi ayrim ozuqalarni yedirishga tayyorlash usullarining qo'llanilishi bilan yaqindan tanishish.

Turli yoshdagi, jinsdagi va mahsulotdorlikdagi hayvonlarga me'yor belgilash, ratsionlarning talabga javob bersh-bermasligini, oziqlantirishni va strukturasini tahlil qilish. Hayvonlarni oziqlantirish va sug'orish kun tartiblari bilan tanishish. Xo'jalikda yetishtiriladigan ozuqalarning to'yimlilik darajasini aniqlashda "Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi" kafedrasida qoshidagi laboratoriyada ozuqalarning kimyoviy tarkibini aniqlab, adabiyotlar bilan taqqoslab, xulosalar berish lozim.

Oziqlantirishning organizmda kechadigan fiziologik jarayonlarning me'yorida bo'lishini ta'minlashda, mahsulot miqdori va sifatiga ta'sirini o'rganish, amaliyotni o'tish jarayonida ko'rganlarini xo'jalik mutaxassisleri va chorva xodimlari bilan muloqotda bo'lgan holda fikrlash va tegishli xulosa chiqarish.

Xo'jalikda tuzilgan ratsion bo'yicha oziqlantirilganda mahsulot birligiga (sut, tirik vazn, tuxum) sarflanadigan ozuqa birligini tahlil qilib, xo'jalikdagi mavjud ozuqalardan to'liq qiymatli ratsion tuzib, hayvonlarni oziqlantirib mahsulot birligiga sarf qilinadigan ozuqa birligini hisoblab xar ikkalasini taqqoslab to'liq qiymatli oziqlantirishning afzalligini ko'rsatib, xo'jalikka namunaviy ratsion tuzishga yordamlashish lozim.

Xo'jalikning iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tanishish, ya'ni jami ekiladigan yer maydoni, shundan ozuqabop ekinlar ekiladigan maydon sut, go'sht va boshqa chorva mahsulotlari ishlab chiqish uchun sarflangan ozuqa birligi, chorva mahsulotlarini sotish, ularning tannarxi va xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini o'rganadilar.

Malakaviy amaliyot davrida kundalik yuritilib, oxirida hisobot yoziladi. Malakaviy amaliyot bo'yicha hisobot dekanat tomonidan tuzilgan xay'at yig'ilishida himoya qilinadi.

ZOOGIGIYENA VA VETERINARIYA ASOSLARI fani (36 soat)

Malakaviy amaliyot jarayonida talaba molxonalarda mikroiklim ko'rsatkichlarini, havo, suv, tuproq va oziqalarni gigiyenik baholash usullarini; chorva mollari va parrandalarni saqlash, oziqlantirish, sug'orish usullarini; chorva mollari va parrandalarda uchraydigan ichki yuqumsiz, yuqumli va invazion kasalliklarni aniqlash, davolash xamda oldini olish chora tadbirlarini; ozuqalar turlari, to'yimlilik va sifatini; chorva mollari va parrandalarni saqlash, oziqlantirish, sug'orish, parvarish qilishda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish; chorvadorlarning shaxsiy va mehnat gigiyenasini bilish, ekologik sharoitni yaxshilash yo'llari; kasalliklarni klinik, allergik, serologik va laboratoriya usullari yordamida aniqlash; dori moddalar va biopreparatlar ishlatish yo'llari; turli kasalliklarni davolash rejasi, dori moddalarni ishlatish yo'llari, emlash usullari; hayvonlarning turlariga qarab oziqlantirish tipini belgilash, yosh hayvonlarni yoshiga qarab ratsionga kiritadigan ozuqa turlarini va miqdorini aniqlash, ozuqalar to'yimlilikni zootexniya tahlili asosida baholashda kerakli eritmalar tayyorlash; havo, tuproq, suv va oziqalarni gigiyenik baholash usullari, molxonalarni loyihalash va qurishda veterinariya sanitariya talablari; ichki yuqumsiz, yuqumli va invazion kasalliklarini etiologiyasi, klinik belgilari, diagnozi, davolash va olidini olish choralari hamda chorvachilik fermalarini loyihalash; ozuqalarning sifatini baholash usullari; ozuqalarni yedirishga tayyorlash usullari; har xil turdagi va

mahsulotdorlikdagi hayvonlarni oziqlantirish; mahsulot birligiga sarf bo'lgan ozuqa xarajatlarini hisoblashni bilishi kerak.

Talaba, xo'jalikka borganda chorvachilik yoki parrandachilik fermer xo'jaligining bosh rejasi, ozuqa omborlari, sug'orish usullari, veterinariya-sanitariya jixozlari, veterinariya punkti, chorva mollarini saqlash usullari bilan tanishadi.

Amaliyot davrida xo'jalikdagi chorvachilik fermasi bilan tanishish tartibi quyidagicha:

- fermaning bosh rejasi bilan tanishish;
- fermadagi kun tartibi;
- hayvonlarni saqlash usullari;
- hayvonlarni saqlash, oziqlantirish va sug'orish usullari;
- fermani suv bilan ta'minlash;
- molxona ventilyatsiyasi, kanalizatsiyasi va yoritilishi bilan tanishish;
- molxonani go'ngdan tozalash, go'ngni saqlash va hisoblash usullari;
- molxonada mikroiklim ko'rsatkichlarini (harorat, namlik, bosim, havoning harakat tezligi, yorug'lik, zararli gazlar, chang va mikroblar miqdori) aniqlash;
- veterinariya-sanitariya kuzatuv punkti bilan tanishish;
- dezobaryerning tuzilishi va ahamiyati;
- dezinfeksiya, dezinfeksiya va deratizatsiya o'tkazish bilan tanishish.

VETERINARIYA AKUSHERLIGI, GINEKOLOGIYASI VA SUN'IY URUG'LANTIRISH fani (36 soat)

Fan bo'yicha amaliyot davrida quyidagilar bajariladi:

- Davlat naslchilik idoralari va xo'jaliklarning sun'iy kochirish shaxobchalari sharoitlarida naslchilik ishlarini tashkil qilish, nasllik buqalarni saqlash, parvarishlash va ulardan foydalanish sharoitlari bilan tanishish. Urug' olish va uni baholashda ishlatiladigan asbob-uskunalarni ishga tayyorlash jarayonlarida ishtirok etish;

- texnik osemenator bilan birgalikda hayvonlardagi jinsiy sikl fenomenlarini aniqlash, sun'iy urug'lantirish uchun eng qo'lay vaqtlarni aniqlashni o'rganish. Urg'ochi hayvonlarni urug'lantirish usullari, sun'iy urug'lantirish usullarini o'rganish. Urug'ni muzlatish va past haroratda saqlash, uni ishlatish uchun tayyorlashni o'rganish. Murtakni transplantasiyalash usulining nazariy asoslarini o'rganish, ularni fermer xo'jaliklari sharoitlarida samarali qo'llash, ko'payish biotexnikasi usullaridan samarali foydalanish, qayta urchitish tizimini loyihalash;

- ixtisoslashgan chorvachilik fermer xo'jaliklarida sun'iy urug'lantirishni qanday tashkil etilganligini, podani to'ldirish bo'yicha bajariladigan tadbirlarni hisobga olish va hisobot hujjatlarini to'ldirishni o'rganish;

- hayvonlarning **bug'oz**ligini aniqlash va akusherlik-ginekologik dispanserizatsiya o'tkazishda ishtirok etish. Bepushtlik va qisir qolish turlari va sabablarini farqlash, turli ginekologik kasalliklar bilan kasallangan hayvonlarni davolash. Urg'ochi hayvonlarda jinsiy faoliyatini stimullash bo'yicha tadbirlarda

ishtirok etish. Hayvonlarni qisir qolish natijasida kutilayotgan iqtisodiy zararni o'rganish;

- sutdan chikqan bug'oz sigirlarni asrash, oziqlantirish, vitaminli yoki mineralli aralashmalar berish, tug'ishga tayyorlash, tug'ruqxona ishi bilan tanishish. Sigirning tug'ish belgilarini aniqlash, shu belgilar asosida sigirlarni tug'ruqxonaga o'tkazish. Teri qoplamasi, oyoq va tashqi jinsiy lablarga ishlov berish usullarni o'rganish va ularni bajarishda qatnashish;

- tug'ish jarayonini kuzatish, yangi tug'ilgan buzoqqa va tuqqan sigirga akusherlik yordami ko'rsatish. Yangi tuqqan hayvonlarda yuz beradigan fiziologik jarayonlarning buzilishlarini (bachadon atoniyasi, bachadon subinvolyusiyasi, yo'ldoshning ajralmasdan qolishi, endometritlar, septik jarayonlar) oldini olish tadbirlari bilan tanishish va ishtirok etish. Ginekologik kasalliklarini davolash va oldini olishning zamonaviy, samarali usullarini o'rganish.

- sut bezini tekshirish, sog'ish texnologiyasi va sutning sifatini nazorat qilish. Agalaktiya, gipolaktiya va mastitlarni aniqlash va davolash usullarini o'rganish.

QORAMOLCHILIK fani (30 soat)

O'quv amaliyotini maqsadi: talabalarining institutda o'qish davrida olgan nazariy bilimlarini, amaliyot bilan uyg'unlashtirib, ko'nikma hosil qilish.

Amaliyotni mazmuni. Talaba, amaliyot davrida xo'jalik bilan tanishib qisqacha ma'lumotga ega bo'ladi. Bundan tashqari u quyidagilarni tahlil qiladi:

- xo'jalikdagi urchitilayotgan qoramollar podasining tarkibi;
- qoramollarning zoti, zootdorligi, mahsulotdorligi (sigirlarning sut mahsulotdorligi, yosh qoramollarning o'sish ko'rsatkichlari);
- turli yoshdagi va jinsdagi qoramollarni oziqlantirish ratsionlari va tahlili;
- fermaning kun tartibi va ahamiyati;
- sigirlarni asrash usullari;
- sigirlarni urug'lantirish ishlari;
- sigirlarni sog'ish, sut laboratoriyasi faoliyati;
- fermada og'ir ishlarni mexanizatsiyalashtirish;
- fermada veterinariya-sanitariya tadbirlari;
- zootexnikaviy hisob-kitob ishlari.

Olingan ma'lumotlar asosida talabalar hisobot yozadilar. Kuniga bajarilgan ishlar kundalik daftarga muntazam tarzda yozilib boriladi.

PARRANDACHILIK fani (18 soat)

Ushbu malakaviy amaliyotda talabalar parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, tayyor mahsulotlar olish jarayonlarini batafsil o'rganadi. Amaliyot davomida asosan quyidagilarga e'tibor beriladi:

- sanoat, fermer, o'rta va kichik biznes, ma'suliyati cheklangan parranda mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish xuquqiga ega bo'lgan xo'jaliklarni joylashishi, ixtisoslashtirishi va ekologik ko'rsatkichlariga;

- xo'jalikda urchitilayotgan parranda zotlari, liniya va krosslarini tavsifi, parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi tutgan o'rni ularni saqlash, o'stirish va oziqlantirish texnologiyasiga;
- naslchilik ishlarini yuritilishi, nasldor parrandalarni baholash, bonitirovka qilish, yuritiladigan xujjatlar, fan-texnika va ishlab chiqarish yutuqlarini joriy qilinishiga;
- oziqalarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlov berish, parranda turlari bo'yicha retseptlar tayyorlash, zooveterinariya laboratoriyasida nazoratdan o'tkazishga;
- parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tizimini, mikroiklim ko'rsatkichlari, nasldor tuxum ishlab chiqarish, inkubatsiyalash, jo'jalar o'stirish, broyler go'shti ishlab chiqarish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga;
- istiqbolli texnologiyalarni joriy qilish, jahon andozalari talabiga mos keladigan parranda mahsulotlari ishlab chiqish, xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar uning bajarilishiga, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga.

Amaliyot, talaba tomonidan olib borilgan kundalik va qilingan ishlarni hisoboti bilan yakunlanadi. Amaliyot raxbari har bir talaba bilan alohida suhbat o'tkazadi.

CHO'CHQACHILIK fani (12 soat)

Cho'chqachilik xo'jaliklarida (fermer va dexqon) mahsulotdorlik yo'nalishiga qarab, poda tarkibini o'rganish. Xo'jalikda mavjud bo'lgan kun tartibi bilan tanishish. Cho'chqalarning yosh turkumiga qarab, ularni oziqlantirish texnologiyasi bilan tanishish.

Ona cho'chqalardan avlod olishning o'ziga xos tomonlari bilan tanishish, cho'chqa bolalarini sut emish davrida parvarishlash cho'chqalarni bo'rdoqiga boqish texnologiyasini o'rganish.

Cho'chqachilikda birlamchi zootexnikaviy hisobotni va cho'chqalarga en solish usullarini o'rganish.

QO'YCHILIK VA ECHKICHILIK fani (24 soat)

Amaliyotning maqsadi, vazifasi va talabalarni texnik xavfsizligi bilan tanishtirilishidan boshlanadi.

Talabalarni qo'ychilik va echkichilik fanidan olgan nazariy bilimlarini mustaxkamlash maqsadida va ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita ishtirok etish uchun, qo'ychilik sohasidagi mavsumlarni zootexnikaviy tadbirlarda ishtirok etadi. Amaliyotni, Respublikamizning ilg'or chorvachilik xo'jaliklarida, Samarqand shahridagi terilarga birlamchi ishlov berish xususiy kichik korxonalrida, O'zQChEITI va institutning qorako'lchilik muzeyida o'tkazadilar.

Talaba, amaliyot davomida quyidagilar bilan tanishadi:

- naslchilik ishining ahvoli;
- xo'jalikning tarixi;
- iqtisodiy moliyaviy ahvoli ;

- mehnatni va tabiatni muxofaza qilish chora tadbirlari, otarda qo'ylarni sun'iy qochirish va qo'zilatish tartibi;
 - boqish, asrash va yaylov sharoitni va iqlimi;
 - qo'zilarni parvarish qilish;
 - ona bola qilish;
 - qo'zilarni yetimligini oldini olish usullarini o'rganish;
 - qo'zilarni so'yish;
 - terilarga birlamchi ishlov berish;
 - qo'zilarni baholash;
 - bonitirovka qilish, en solish va qo'shimcha baholashni o'rganadilar;
 - junlarini guruhlarga ajratish;
 - junining toza chiqimini aniqlash;
 - junlarning nuqsonlarini paydo bo'lishini va ularni oldini olish;
 - junining baholash usullari;
 - po'stinbob qo'y terilarining xususiyatlarini, ularning tovarshunoslik nuqtai nazaridan baholash va ularni klassifikatsiyasi;
 - barra terilarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni baholash usullari;
 - barra terilarning rang va rang-barangligini o'rganish;
 - terilarni va junni davlatga sotishni o'rganish;
 - mavsum mobaynida qo'llaniladigan xujjatlarni to'ldirishni o'rganish.
- Amaliyot davrida xar kuni o'rganilgan ishlarni kundalikga yozib boradilar.
- Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid tajribalar o'tkaziladi va olingan ma'lumotlar yuzasidan bitiruv malakaviy ishi himoya qilinadi.

IV-BOSQICH TALABALARINING BITIRUV OLDI TEXNOLOGIK MALAKAVIY AMALIYOT

5410600 (55620600) - Zootexniya (turlari bo'yicha) yo'nalishi talabalari 7-o'quv semstrida 7 haftalik bitiruv oldi texnologik malakaviy amaliyotni o'taydilar. Amaliyotga jami 42 kun ajratilgan bo'lib, shundan: a) xususiy zootexniyaga 36 kun. Bunda: qoramolchilik (8 kun), parrandachilik (7 kun), chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi (6-kun), yilqichilik va tuyachilik (5-kun), sutchilik (2 kun), cho'chqachilik (2-kun), asalarichilik (2-kun), qo'ychilik (2-kun), baliqchilik (2-kun) va qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish (6-kun) fanlaridan malakaviy amaliyoti o'tkaziladi.

Dekanat va institut o'quv bo'limi, ishlab chiqarishdagi tegishli xo'jaliklar raxbarlari bilan hamkorlikda amaliyot davrida boshqariladigan ishlar hajmi, ma'daniy-ma'rifiy sharoitlar, amaliyot joyini aniqlash kabi tashkiliy tadbirlar rejasini tuzadi. Har bir talaba amaliyot mobaynida tayanch xo'jaliklar bilan kelishgan holda turar joy, kerakli asbob-uskunalar, jihozlar va shaxsiy himoyalanish vositalari bilan ta'minlanadi.

Tegishli kafedralar amaliyot boshlanishigacha o'zlariga birlashtirilgan tuman va viloyatlarga vakillar yuborib, tuman va viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi, qorako'lchilik uyushmasi, "nasl-xizmat" birlashmalari bilan birgalikda amaliyot o'tash jadvalini tuzadilar va uni dekanatga tasdiq uchun taqdim etadilar. Jadvalni tuzishda, har xil toifadagi chorvachilik xo'jaliklari, parrandachilik fabrikalari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat korxonalari nazarda tutiladi. Amaliyot o'tash uchun kelgan talaba, avvalo xo'jalik (korxona) raxbari va zootexnikka uchrashib, amaliyot o'tash uchun dekanat tomonidan berilgan yo'llanma hamda amaliyot vazifalari bilan ularni qisqacha tanishtiradi. Xo'jalikdan amaliyot raxbari etib zootexnik, yoki ish boshqaruvchi tayinlanadi. Shundan so'ng talabaning amaliyot o'tashining aniq rejasi (jadvali) tuziladi. Bunda umumiy jadval asos qilib olinadi.

Amaliyot, joriy o'quv yilining sentyabr, oktyabr va noyabr oyida tashkil qilinadi. Amaliyot ohirida talaba xo'jalik (korxona) raxbariga amaliyotga oid barcha rasmiy xujjatlarni ko'rsatib, tasdiqlatib oladi va 5 kun oralig'ida hisobotni yozib topshiradi.

Amaliyot, o'tadigan talabalar joylarda aholi va ayniqsa chorvadorlar o'rtasida mamlakatda ro'y berayotgan ijobiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar haqida so'zlab, suxbatlar o'tkazishi lozim. Bunda, quyidagi tavsiya qilinayotgan mavzulardan foydalanishi mumkin:

1. Istiqlolning ijtimoiy va iqtisodiy mohiyati.
2. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.
3. Mamlakat xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligi ustuvordir.
4. Prezident I.A.Karimov millat ishonchi, shon shuxratni va yoshlarning dono g'amg'o'ridir.
5. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
6. Chorvachilikning kechasi, buguni va ertasi.
7. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos tomonlari.
8. Istiqlol va o'zligimizni anglash.
9. Buyuk siymolar - Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bekning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni.
10. Giyoxvandlik bizning avlodimiz uchun yoq narsadir.
11. Kelajak poydevorini bugun qurish lozim.
12. Qishloq xo'jalik sharoiti bugungi kun talabi.
13. Prezidentning chorvachilik rivojiga qaratilgan 2006 yildagi 308 va 2008 yildagi 842 sonli qarorini mazmun va mohiyati.
14. Qishloq xo'jalik sohasida kadrlar tayyorlashda, Samarqand qishloq xo'jalik institutining o'rni.
15. Ma'naviy va milliy qadriyatimiz ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz.
16. Barkamol avlod-kelajak poydevori.
17. O'zbekiston va jahon iqtisodiyoti.

“Zootexniya” ta’lim yo’nalishi bo’yicha malakaviy amaliyot o’tash jadvalini quyidagi tartibda tuzish mumkin (namuna).

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand viloyat qishloq va suv
xo’jaligi boshqarmasi, chorvachilik bo’limi
boshlig’i

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand KXI, Veterinariya
zootexniya va qorako’lchilik
fakulteti dekani

5410600(5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi IV bosqich talabalarining Samarqand viloyati xo’jaliklarida bitiruv oldi texnologik malakaviy amaliyotini o’tish jadvali .

Tuman	Talabalarining ismi va familiyasi	Tuman iqtisodlashgan xo’jalik	Tuman fermerlar uyushmasi	Parrandachilik fabrikasi	Fermer va dexqon xo’jaligi (hayvon turlari bo’yicha)	Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sanoat korxonalari
Samarqand		2 kun	2 kun	10 kun	18 kun	10 kun
Tayloq		2 kun	2 kun	10 kun	18 kun	10 kun
Institut o’quv tajriba xo’jaligi		2 kun	2 kun	10 kun	18 kun	10 kun
Eslatma: Tarmoqlarga ajratilgan vaqt amaliyot raxbari tomonidan o’zgartirilishi mumkin.						

QORAMOLCHILIK fani (60 soat)

Malakaviy amaliyotning maqsadi:

- talabalar, institutda olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg’unlashtirgan holda uni yanada mustaxkamlash;

- turli mulk shakliga asoslangan ilg’or qoramolchilik fermalarida malaka oshirib, ilg’orlar tajribasiga suyangan holda mehnatni tashkil etishni o’zlashtirish.

Malakaviy amaliyotning mazmuni. Malakaviy amaliyotni o’tash davrida talabalar quyidagilar bilan tanishadilar:

- xo’jalik haqida ma’lumotlar (xo’jalikning tashkil etilgan vaqti, xo’jalikning umumiy yer maydonlari, ekin maydonlari, so’nggi 3 yillikdagi chorvachilikka oid ma’lumotlar, xo’jalikning iqtisodiy samaradorlik ko’rsatkichlari va h.k.);

- xo'jalikda oziqa yetishtirish va oziqa balansi (yetishtiriladigan ozuqa turlari, ekin maydonlarining hosildorligi, yetishtirilgan oziqalarning miqdori, talabga mosligi);
- podani tarkibi (jami mollar bosh soni, yoshi va jinsi bo'yicha guruhlar, ularni foizda ifodalanishi);
- xo'jalikda qoramollarni oziqlantirish (sog'in sigirlar, bug'oz sigirlar hamda g'unojinlarni, yosh qoramollar, podani to'ldirishga mo'ljallangan urg'ochi tanalarni, bo'rdoqilashdagi qoramollarni oziqlantirish ratsionlari, buzoqlarni o'stirish sxemasi va h.k);
- mahsulotdorligi bo'yicha sigirlar guruhi (tirik vazni, sutini miqdori va yog'i bo'yicha sigirlarning guruhlariga ajratilishi);
- urg'ochi tana va sigirlarni urug'lantirish (xo'jalikda qo'llanioladigan qochirish usullari, foydalanilayotgan urug'larga tavsif, zooveterinariya punktlarining tashkil qilinganligi, 100 bosh sigir va g'unajindan buzoq olish);
- bug'oz sigirlarni asrash (oziqlantirish, profilaktoriya, tug'dirish va h.k);
- xo'jalikda buzoqlarni o'stirish texnologiyasi;
- xo'jalikda qoramollarni asrash va saqlash (turli yoshdagi qoramollarni asrash sistemasi va saqlash usullari va uning iqtisodiy samaradorligi, yilning turli fasllarida asrash va saqlashni o'ziga xos xususiyatlari);
- sigirlarni sog'ishga tayyorlash (sog'ish usuli, yelinga ishlov berish, sutning 13264-88 Davlat andozasi talablariga javob berishi, sutning yog'i zichligi, nordonligi, mexanik va mikroblar bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash);
- sutga dastlabki ishlov berish (sutni tozalash, sovutish, saqlash, tashishni tashkil qilish);
- qoramollarni shoxsizlantirish;
- xo'jalikda ozuqa tayyorlash va tarqatish;
- zootexniya hisob-kitob ishlari (zootexniya hisoboti yuritiladigan kitob, xo'jalikda hisobot yuritish ishlari, qaydnomalar va h.k);
- qoramollarni bonitirovka qilish (yosh qoramol, sigirlar, buzoqlarni bonitirovka qilish, eksteryerga baho berish, tamg'alash);
- naslchilik ishlarni tashkil etilganligi. Qisirlikka qarshi kurash zootexnikaviy tadbirlar. Og'ir ishlarni mexanizasiyalashtirish (ozuqalarni jamg'arish, ozuqa tayyorlash, sigirlarni sog'ish, sug'orish, go'ngdan tozalash);
- binolarni qurilishi (zoogigiyenik talablar bo'yicha qurilishi, xajmi, uzun va kengligi, balandligi, maydoni, bir bosh molga to'g'ri keladigan maydon, yorug'lik, mikroiklim ko'rsatkichlari);
- veterinariya-sanitariya tadbirlari (dizobaryer, dizomet, dizenfeksiya, dizenseksiya, hayvonlarni davolash ishlari);

Go'shtdor qoramolchilik.

Podaning tarkibi, sigirlarni urug'lantirish, buzoq olish, qoramollarni guruhlariga ajratish, yosh qoramollarni go'sht uchun o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari, yetiltirish, bo'rdoqilash davrlari, go'shtdor qoramolchilikda naslchilik ishlari, qoramollarni bog'lab va bog'lamasdan saqlashning samaradorligi, oziqlantirish

usulining vazn ortishga ta'siri, turli guruhlarda o'sish ko'rsatkichlari. Go'sht mahsulotdorligiga oziqlantirish tipi va yoshining ta'siri.

Talabalar malakaviy amaliyot so'ngida, sudor va go'shtdor qoramolchilikning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etadilar. Hisobot tayyorlaydilar va maxsus tuzilgan komissiya yig'ilishida uni ochiq himoya qiladilar.

PARRANDACHILIK fani (48 soat)

Amaliyotning maqsadi. Mutaxassislik fanlardan olgan nazariy bilimlarga tayangan holda, parrandalarning biologik xususiyatlari va sohada mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishish hisoblanadi.

Bugungi kunda turli mulk shakldagi parrandachilik xo'jaliklarida, tan olingan zamonaviy parranda krosslaridan foydalanish asosida tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish jarayonlarini, chiqitsiz mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini, xo'jaliklar ekologik muammolarni yechimi hamda xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida:

- xo'jalik tavsifi, mavjud parranda zotlari, liniya va krosslarini, ularning kelib chiqishi, mahsulotdorlik yo'nalishi, iqlimlashtirish, urchitish usullari. Xo'rozlar nasli va tovuqlarning mahsulotdrligni (tirik vazni, tuxumdorligini, foydalanish muddatlari);

- naslchilik ishlari, nasldor parrandalarni baholash tartibi, yuritiladigan xujjatlarni;

- nasldor tuxumlarni inkubatsiyalash texnologiyasi, bir kunlik jo'jalarni baholash, xo'jalikga jo'natish, inkubator turlari va ishlash pirinsiplarini;

- jo'jalarni o'stirish usullari, nasldor xo'roz va makiyonlarni o'stirish hamda asosiy tovuqlar galasiga o'tkazish tartiblarini (galani to'ldirish);

- parranda mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sexlar faoliyati, parrandalarni saqlash, oziqlantirish, tuxumlarni terib olish, joylashtirish, jo'natish, yuritiladigan zooveterinariya hisob-kitob ishlari kabi texnologik jarayonlarni;

- turli xil ozuqalarni qabul qilish, saqlash, omixta yemni retseptlar bo'yicha tayyorlash va uni zooveterinariya laboratoriyasida tekshirish, ozuqalarni tarqatishdan avval qayta ishlash usullarini va foydalaniladigan uskunalarning ishlash tartibini, omixta yemlarni xarajat qilish qaydnomasini yurgizishni, ozuqa kunlari sonini hisoblashni amalda ko'rsatishni;

- parranda mahsulotlariga birlamchi ishlov berish, saqlash, jo'natish texnologiyalari shartnoma xujjatlarini yuritilishini;

- parrandachilikka ixtisoslashgan fermer, o'rta va kichik biznes xo'jaliklari, parrandachilik fabrikalari, ma'suliyati cheklangan parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xuquqiga ega bo'lgan firmalar faoliyatini;

- har xil toifadagi parrandachilik xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashni o'rganadilar.

CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISH, SAQLASH VA QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI fani (36 soat)

Amaliyotning maqsadi. “Chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” fanidan bo’ladigan amaliyot maqsadi, talabalarga go’sht mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, to’yimligi va inson hayotida tutgan o’rni hozirgi holati, go’sht sanoati korxonalarini yuqori sifatli xom-ashyo bilan ta’minlash va shu asosda go’sht mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko’paytirish va sifatini yaxshilash, qo’shimcha go’sht mahsulotlaridan xalq xo’jaligida unumli foydalanish va ularni qayta ishlash, turli xildagi tayyor va yarim tayyor go’sht mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonlari bilan tanishtirish hisoblanadi.

Amaliyotning vazifasi. Talabalarga turli qishloq xo’jalik hayvonlarining go’sht mahsuldorligini, ularning sifatini oshirish omillarini, dastlabki ishlov berish va ikkilamchi qayta ishlov berish jarayonlari orqali turli go’sht mahsulotlarini ishlab chiqarishni; qishloq xo’jalik hayvonlari va parrandalarni birlamchi qayta ishlash jarayonlari, ular go’shtidan turli tayyor va yarim tayyor go’sht mahsulotlari, bankali go’sht mahsulotlari, turli kalbasa va qazilarni tayyorlash jarayonlarini; go’sht mahsulotlarini saqlash va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonlarini o’rganishi uchun, amaliyot raxbari talabalarga ko’nikma hosil qilishi kerak.

- so’yishga mo’ljallangan qishloq xo’jalik hayvonlarini tashish va so’yish jarayonini bilish;

- go’sht va go’sht mahsulotlarining ozuqaviy, biologik va energetik qiymatini. Go’sht va go’sht mahsulotlarini sifatini xarakterlaydigan ko’rsatkichlar va unga ta’sir qiluvchi omillar. Go’sht va go’sht mahsulotlarini andozalashtirish (standartlash) nimtalarni baholash va tamg’alash, ularning andozalari. Terini qayta ishlash va konservatsiyalash jarayonini o’rganish;

- terini sifatini aniqlash jarayoni va andozalari. Go’shtni konservatsiyalashni mohiyati va usullarini tahlil qilish;

- go’shtni sovuq va yuqori haroratda konservatsiyalash. Yarim tayyor va tayyor go’sht mahsulotlari ishlab chiqarish. Turli kolbasalarni kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati. Kalbasa mahsulotlarini sifatini oshirish omillari. Turli kolbasalar ishlab chiqarish jarayonlarini o’rganish;

- kolbasa mahsulotni sifatini oshirish yo’llari. Xom-ashyo go’sht va qiymaga qo’shiladigan turli ziravorlarni mohiyati. Kolbasa mahsulotlarining sifatiga qo’yiladigan talablarni o’rganish.

- xo’jalikdagi parranda tuxumining tovarlik xususiyatini o’rganish;

- asalning mol tovar xususiyati. Asalning sifatiga davlat andozalari. Asalning qo’shimcha mahsulotlarini bilish;

- pishloq, brinza, shubat, qimiz, kefir tayyorlash texnologiyasini o’rganish.

YILQICHILIK VA TUYACHILIK fani (30 soat)

Amaliyotning maqsadi. Talabalarga, yilqichilik va tuyachilik fanidan nazariy bilimlarini, yilqichilik va tuyachilik xalq xo’jaligidagi ahamiyati, tana tuzilishi va

mahsuldorligini o'rganish, ot va tuyalardan ishchi va ulov sifatida foydalanish hamda qochirish, o'sish, rivojlanishini, ot sport turlari bilan tanishtirish.

Amaliyotning vazifasi: talabalarga fermer dexqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yilqichilik va tuyachilikda **takr** ishlab chiqarishni bilish; ot va tuyalarning uyur podasini tashkil qilish, ot va tuyalardan qishloq xo'jaligida ishchi va transport sifatida to'g'ri foydalanish, ularni me'yorida saqlash va oziqlantirish, ot sportini turlarini bilish, ot va tuyalarning har tomonlama mahsulotdorligini o'rganishga e'tibor qaratilishi zarur;

- xo'jalikdagi mavjud otlarning zoti, jinsi, yoshi, tusi bo'yicha otlardan foydalanish (qishda, bahorda, yozda, kuzda), naslli va ishchi otlar bilan tanishib, ularni saqlash, oziqlantirish, sug'orish va tozalash jarayonlarini o'rganish;

- otxonadagi kun tartibini aniqlash, nasldor otlarni bonitirovka qilish (ballar bo'yicha), kelib chiqishi va tana o'lchamlari, eksteryer tana qismlari, ish qobiliyati, bolalarining sifat bo'yicha, otlarni aravaga qo'shishni va egarlashni o'rganish. Otni minganda va aravaga qo'shganda, otni boshqarishni o'zlashtirish. Xo'jalikda sotilgan nasldor otlarning tavsifi.

- ot sportining klassik va milliy o'yinlari otlarni mashq qildirish va sinash egar jabduqlarni fermer xo'jaliklar, ot sportining klublarida amaliyot davomida barcha soha va jarayonlarni raxbar ishtirokida o'rganish amalga oshirilib boriladi;

- otlardagi eksteryer kamchiliklar, nuqsonlar hamda yaramas odatlarni o'rganiladi.

- nuqson va kamchiliklarning quyidagilari: yelka muskullarining urulishi sabablari, tirsak shishi, bilakuzuk shishi, echki oyoqlik, brekdaun, bukshin, jabka, tizza shishi, tovon shishi, shpat ortirish-bo'g'imlar holatining o'zgarishi (xo'roz yurish, qurba, bo'g'in shishi, rarer) kabi nuqsonlarni paydo bo'lish sabablari, shuningdek ot tuyoqlarida uchraydigan nuqson va kamchiliklar, yasi tuyaqlik, g'ulasimon yoki sitakonsisimon, tor tuyoqlik, qiyshiq tuyoqlik, xalqali tuyoq, qovoriq tuyoq, yoriq tuyoq, tuyoq raki paydo bo'lish sabablarini, shuningdek otlarning tuslari va belgilarini, ularning bir biridan farq qilishini aniqlab, tamg'alash usullarini amaliyot raxbari tomonidan o'rgatiladi.

Yilqichilikda naslchilikning birlamchi hisobot fermalari, naslchilik guvoxnomalari bilan tanishadilar.

Yilqichilik va tuyachilikda qochirish usullari, otlar bilan muomala qilishdan oldin, otning fe'l-atvorini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Amaliyot hisobot yozish bilan yakunlanadi.

SUTCHILIK fani (12 soat)

Amaliyotni maqsadi: Talabalar o'qish mobaynida olgan nazariy bilimlarini sutni qayta ishlashga mo'ljallangan kichik sanoat korxonalarida amaliyot bilan uyg'unlashtirib, bilimlarini yanada mustaxkamlashdan iborat.

Amaliyotni mazmuni: Sutni qayta ishlashga mo'ljallangan kichik sanoat korxonalarida talabalar quyidagilar bilan amaliy tarzda tanishadilar va bevosita sut mahsulotlarini qayta ishlashda ishtirok etadilar:

- texnika xavfsizligini saqlash qoidalari:

- sutni qabul qilish (xo'jaliklardan keltirilgan sutni 13264-88 Davlat andozalariga muvofiqligi, sutni navini aniqlash, bazis yog'likdagi sutga aylantirish);
- sutni tekshirish (laboratoriyada sutdan o'rtacha namuna olish, sutni tarkibidagi yog'lik foizi, zichligi, nordonligini aniqlash tartiblari bilan tanishadi va tekshirish o'tkazadilar);
- xom-ashyo sutga dastlabki ishlov berish (sutni mexanik iflosliklardan tozalash jarayoni);
- xom-ashyo sutni korxonada saqlash (saqlanadigan uskunalarning mavjudligi, zahirada sutni saqlash);
- korxonadagi asbob-uskunalar bilan tanishish (turli mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, binolar me'yorlarga javob berishi);
- pasterlangan, qizdirilgan, sterillangan iste'mol suti va qaymoq ishlab chiqarish jarayonlari;
- nordon sut mahsulotlari ishlab chiqarish (qatiq, kefir, suzma, smetana, qimiz, shubat va h.k);
- korxonani suv, sovuqlik va issiqlik bilan ta'minlanganligi (sovuq suv, issiq suv, bug', frios va ammiak gaz manbalari va h.k);
- saryog' ishlab chiqarish jarayonlari (saryog' ishlab chiqarishga mo'ljallangan xom-ashyo qaymoqqa bo'lgan talablar, "xavaskor" saryog'i ishlab chiqarish jarayoni, saqlash, sotuvga chiqarish va h.k);
- korxonada pishloq ishlab chiqarish (pishloq ishlab chiqarishga mo'ljallangan xom-ashyo sutni sifatiga bo'lgan davlat andozasining talablari, golland va eritilgan pishloq ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari);
- sut konservalari ishlab chiqarish (quyultirilgan sut, quruq sut va h.k);
- sanoat asosida ishlaydigan kichik sut korxonasida qo'shimcha mahsulotlardan foydalanish (obrat (yog'siz sut), zardob, ayron);
- tayyor mahsulotlarni saqlash (binolar va ularni mikroiklim ko'rsatkichlari, sig'imi va h.k);
- mahsulotlarni savdoga chiqarish (avto ulovlar bilan korxonani ta'minlanganligi, savdo shaxobchalarining mavjudligi, shartnomalar va h.k);
- amaliyot so'ngida talabalar sanoat asosida faoliyat yuritadigan kichik korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil etadilar, ma'lumotlar asosida hisobot yozib uni ochiq himoya qiladilar;
- amaliyot davrida barcha talabalar, kichik korxonadagi jarayonlarni rasmga va videoga oladi (unda kamera va video tasmali telefonlardan foydalanadi).

CHO'CHQACHILIK fani (12 soat)

Talabalar quyidagilar bilan tanishadilar: podaning tuzilishi va holati, zoti va zotdorligi, ishlab chiqarish va uning bajarilishi. Cho'chqalarni qochirish, ona cho'chqalardan bola olish, bo'rdoqilash rejalarini tuzish tartibi va uni bajarilishi. Asosiy ona cho'chqalardan jadal foydalanish, bir yilda bir bosh asosiy ona cho'chqa hisobiga o'stirilgan cho'chqalar soni va tuximlar soni. Erkak va ona cho'chqalarni

qochirishga tayyorlash va uni o'tkazish. Tekshiruvchi ona cho'chqalarni tanlash, oziqlantirish, asrash va qochirishga tayyorlash, bola olish.

Yosh cho'chqalarni boqish va asrash, yozgi oziqlantirishni tashkil qilish ko'k konveyerdan foydalanish: sanitariya–profilaktika tadbirlarini o'tkazish. Dastlabki zootexnika hisobi. Cho'chqalarni bonitirovka qilish va uni natijalarini naslchilik ishlarida qo'llash. Nasldor erkak cho'chqalarni bolalarini sifatiga qarab baholash.

Bo'rdoqilangan cho'chqalarni topshirish va mahsulot sifatini aniqlash. Sohada ishlayotganlarga ish xaqi to'lishni tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirish borasidagi tadbirlarni amalga oshirish va cho'chqa go'shti ishlab chiqarishni tannarxini pasaytirish.

Fermer, dexqon boshqa va kichik cho'chqachilik xo'jaliklarida cho'chqachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'rganish.

ASALARICHILIK fani (12 soat)

Talabalar asalarichilik asoslarini va madaniy o'simliklarni xasharotlar yordamida changlatishni yuqori darajada tashkil etishni o'rganishi katta amaliy ahamiyatga egadir.

Har bir mahsulot birligi uchun kam mehnat sarf etib, ko'p miqtorda sifatli asal, mum, propolis, ona ari suti, gul changi va boshqa asalari mahsulotlarini yetishtirishni o'rganish amaliyotni maqsadi hisoblanadi. Buning uchun talabalar amaliyot davomida asalarichilik fermer xo'jaligining tarixini, xo'jalikda mavjud bo'lgan asalari oilasining sonini, uning holatini ona ari yetishtirish yo'llarini, asalarichilikda qo'laniladigan asbob-uskunalar, qurilmalar bilan tanishadilar.

Shuning bilan birgalikda asalari oilasining tarkibini (ona, ishchi va erkak arilar). Asalari pasekasida dastlabki hisob-kitob daftarini yuritishni o'rganadilar.

Talabalar pasekada asal ajratishni, asalning xillarini, mum ajratishni, propolis olish va asalari zaharini olish jarayonlari bilan tanishishadi. Har bir pasekadagi asalari oilasining holatini kuzatib borishni o'rganib quyidagilarga e'tibor beradi:

- asalari oilasining raqami (№ ____.);
- ona arining tug'ilgan yili;
- ona arining kelib chiqishi;
- oilaning o'tgan yilgi mahsulotdorligi: yalpi asal kg, mum kg, olingan yangi ona ari dona;
- qishga chidamliligi;
- o'zidan ko'plab nektar ajratuvchi o'simliklar bilan tanishib, ulardan namunalar olish;
- asalari mahsulotlarini saqlash va qadoqlash;
- asalari uyasining tuzilishini, duradgorlik ustaxonasini o'rganish;
- asalarilarning ozuqasi bilan tanishish;
- sohani iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Amaliyot talabalar tomonidan yuritilgan kundalik ma'lumotlari asosida hisobot yozish bilan yakunlanadi. Hisobot amaliyot raxbarining tavsiyasiga binoan dekanat tomonidan tashkil qilingan komissiya yig'ilishida ochiq himoya qilinadi.

QO'YCHILIK VA ECHKICHILIK fani (12 soat)

Amaliyotning maqsadi, vazifasi va talabalarni texnik xavfsizligi bilan tanishtirilishidan boshlanadi.

Talabalarni qo'ychilik va echkichilik fanidan olingan nazariy bilimlarini mustaxkamlash maqsadida va ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishi uchun qo'ychilikdagi mavsumlardan ishlab chiqarish texnologik amaliyotda foydalaniladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- qo'ychilikning hozirgi holati, kelajakdagi istiqboli;
- xo'jalikning tarixi;
- iqtisodiy-moliyaviy ahvoli;
- mehnatni va tabiatni maxofaza qilish chora tadbirlari bilan tanishish, biron bir otarda qo'ylarni sun'iy qochirish va qo'zilatishda ishtirok etish;
- ona bola qilish;
- qo'zilarni yetimligini oldini olish usullarini o'rganish;
- qo'zilarni baholash;
- bonitirofka qilish, en solish va qo'shimcha baholashni o'rganish;
- qo'zilarni 10-15 kunligida qo'shimcha baholash;
- qo'zilarni so'yish, terisini shilish, konservalash va saqlash;
- junlarini guruhlarga ajratish;
- junining toza chiqimi;
- junlarning nuqsonlarini paydo bo'lishi va ularni oldini olish;
- junining baholash usullari;
- po'stinbop qo'y terilarining xususiyatlarini, ularni tovarshunoslik nuqtai nazaridan baholash va ularni klassifikatsiyasi;
- barra terilarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni baholash;
- terilarni va junni davlatga sotishni o'rganish;
- qorako'l terilarni xo'jalikda navlarga ajratish, mavsum mobaynida qo'llaniladigan xujatlarni to'ldirish;
- qo'chqorlarni aprobasiya qilishda qatnashish.

Fan uchun belgilangan bitiruv malakaviy ishi mavzusiga binoan tajribalar o'tkaziladi va olingan ma'lumotlar yuzasidan hisobot yozilib, bitiruv malakaviy ishi himoya qilinadi.

BALIQCCHILIK fani (12 soat)

Baliqchilikni o'ziga xos soha ekanligini tahlil qilish, xo'jalikda sohani yuritish tartibi, xo'jalikga tavsif berish. Baliq zotlari va ularni urchitish rejasi bilan tanishish. Xavzalar uchun ozuqa va go'ng miqdorini aniqlash. Baliq xavzalarini takomillashtirish va yangidan tashkil qilish.

Baliqlarni o'sish, rivojlanish va oziqlantirish rejasi, ko'llarni baliq urchitishga tayyorlash. Yosh baliqlarni urchitish texnologiyasi, baliqlarni o'sishi va urug' qo'yishini nazorat qilish. Kuzda xavzalardan baliq chiqishi, xavza ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Sohaning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiladigan omillarni o'rganish. Xo'jalikda baliq urchitishning istiqbollari. Sanitariya-profilaktika tadbirlar.

Kasalliklarni oldini olish yo'llari. Baliqchilikka iqtisoslashgan fermer va dexqon xo'jaliklarini sohani rivojlantirishdagi o'rni. Baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish usullari bilan tanishish.

QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTI fani (36 soat)

Xo'jalik yurituvchi subyektning (fermer xo'jaligi, shirkat xo'jaligi, agrofirma yoki xususiy korxona) yer va mehnat resurslaridan, asosiy va aylanma vositalaridan foydalanish holati bilan tanishish. Korxonaning biznes rejasi, uning asosiy ko'rsatkichlari bilan tanishish. Ishlovchilar, texnikaning markasi bo'yicha soni, ularldan foydalanish holati. Mehnatni tashkil etish va unga xaq to'lash, rag'batlantirish. Xo'jalikka xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari va ular ko'rsatgan xizmatlar xajmi (qiymati). Xo'jalikda qoramolchilik (qo'ychilik, parrandachilik, cho'chqachilik, baliqchilik, yilqichilik, asalarichilik, tuyachilik) ning hozirgi holati. Poda harakati va poda tarkibi. Chorva mollarining yem-xashak bilan ta'minlanganlik holati. Mollarning mahsulotdorligi va uni oshirish yo'llari. Yetishtirilgan mahsulotlar tannarxining hozirgi ahvoli va uni pasaytirish imkoniyatlari. Mahsulotlarning sotish baholari va ularni oshirish yo'llari. Korxonaning samaradorlik ko'rsatkichlari. Foyda, ishlab chiqarish rentabelligi va ularning hozirgi holati, oshirish imkoniyatlari kabilarni o'rganish.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI fani (12 soat)

Fan bo'yicha amaliyot davrida qo'yidagilar o'rganiladi:

- xo'jalikda tabiatni muhofaza qilishning ahvoli;
- yer va qazilma boyliklar, suv, resurslari, o'simlik va hayvonot olamidan foydalanishga nisbatan davlat nuqtai nazaridan yondoshish va ulardan oqilona foydalanish;
- xo'jalik faoliyatining chorvachilik obyektlari, zaharli ximikatlar va mineral o'g'itlarni saqlash, iqtisodiy talablar bilan uzviyligi;
- ishlab chiqarish jarayonida atrof - muxitning ifloslanish darajasi;
- zooveterinariya mutaxasislarining kerakli sanitariya talablariga rioya qilmasliklari oqibatida va invazion kasalliklar qo'zg'atuvchilari bilan atrof - muhitning ifloslanishi;
- tabiat muhofazasi qonunchiligining buzilishlariga qarshi kurash;
- mehnat kollektivlarining tabiat muxofazasi bo'yicha o'z huquq va burchlaridan foydalanish darajasi;
- ekologik masallar bo'yicha suhbatlar o'tkazish;
- fuqarolar mudofaasining tashkiliy tuzilishi va ish rejasi;
- odam, chorva mollari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini himoyalash inshootlari;
- maxsus guruhlar yoki aholini fuqarolar mudofaasi bo'yicha o'qitishni tashkil etishning ahvoli;

- qishloq xo'jalik texnikalarining fuqarolar mudofasi maqsadlariga muvofiqlashtirishning ahvoli;
- harbiy holat vaqtida xo'jalik ishiga ta'sir etuvchi omillar;
- xo'jalikda o'tkaziladigan fuqarolar mudofaasi tadbirlarida qatnashish;
- ma'lumotlarni kundalik, hisobot va bitiruv malakaviy ishlarida aks ettirish.

AMALIYOT XUJJATLARI VA ULARNI YURITISH TARTIBI

Talabalar amaliyot davomida kundalik yuritadilar, bundan tashqari amaliyot o'tayotgan xo'jalikning iqtisodiy va zootexnikaviy ko'rsatkichlarini qayd qiladigan maxsus daftar tutadilar. Bu xujjatlar IV bosqichning boshida devonxona daftariga tikiladi, varaqlari raqamlanib ip o'tkazilgach, dekanatning muxri bilan tasdiqlanadi. Amaliyot davomida nazorat oziqlantirish va sog'im kunlari, xamda hayvonlarning turlari bo'yicha boshqa mahsulotdorlikni baholash ishlari shu xujjatlarga qayd qilib boriladi.

Kundalikda har kuni bajarilgan barcha ishlar: xo'jalikning jug'rofiy joylashishi, u bilan chegaradosh xududlar, xo'jalikning ohirgi uch yillik iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlili, xo'jalikda yem-xashak zahirasi, ozuqabop ekinlar ekiladigan yerning unumdorligi, suv bilan ta'minlanish darajasi. Chorvachilik fermalarni qurilishi, qo'shimcha inshootlarning zoogigiyenik talabga javob berishi. Ozuqa turlari va ayrim shirali ozuqalarni (senaj, silos) tayyorlash texnologiyasi, hayvonlarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari, sut go'sht, tuxum va jun mahsulotdorligini hisobga olish tartibi. Sutga xo'jalikda birlamchi qayta ishlov berish tartibi.

Mavjud zooveterinariya xujjatlarini holati, naslli hayvonlarni boqish va baholash, so'yim ko'rsatkichlarining holati, mahsulotni ishlab chiqarish, tashish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasining holati yozib boriladi.

Bundan tashqari tug'ilgan va tashqaridan sotib olingan hayvonlarni kirim qilish, hamda sotilganligini va so'yilganligini chiqim qilish holati qayd qilinadi.

Kundalikni ohirgi to'rtinchi ustuniga amaliyot raxbari o'zining ko'rsatma va maslaxatlarini berib borishi kerak. Amaliyot davrida talaba qanday zootexnikaviy xujjat va tadbirlarga e'tibor berishi kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatmaga bayon etilgan. Amaliyot rejasi bilan birgalikda ushbu uslubiy ko'llanma har bir talabaga beriladi va foydalanish tartibi tushuntiriladi.

HISOBOTNI RASMIYLASHTIRISH

Bitiruv oldi amaliyotining hisoboti fanlar bo'yicha quyidagi tartibda yoziladi.

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va uni iqtisodiyoti.
2. Qoramolchilik.
3. Parrandachilik.
4. Yilqichilik va tuyachilik.
5. Asalarichilik.
6. Baliqchilik.
7. Cho'chqachilik.

8. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.
9. Sutchilik.
10. Hayot faoliyati xavfsizligi va fuqarolar mudofasi.
11. Bitiruv oldi texnologik malakaviy amaliyoti haqida hulosalar.
12. Foydalanilgan adabiyotlar va zootexnikaviy xujjatlari ro'yxati.

Hisobot amaliyot tugashiga 10 kun qolganda kundalik va ilova qilingan jadvallar ma'lumotlari asosida yoziladi. Amaliyot tugaganidan 5 kundan so'ng o'rkarib u, tegishli kafedraga topshiriladi va kafedra dekanat tuzgan komissiya a'zolari bilan birgalikda hisobotni tekshirib, taqriz yozish uchun amaliyot raxbarlariga beradi. Hisobot xo'jalik raxbariyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilar yoritilishi kerak:

- chorvachilikni barqaror rivojlantirishga oid Respublika Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining farmoni va qarorlarini joylarda bajarilishining tahlili.
- amaliyot o'tilgan xo'jalikning jug'rofiy ishlab chiqarish va iqtisodiy jihatdan tafsifi (umumiy yer maydoni va undan foydalanishning holati, xo'jalikning iqlimi, ekologik sharoiti, mahsulot ishlab chiqarishning ahvoli)
- xo'jalik iqtisodida chorvachilik tarmog'ini salmog'i. Chorva mollarini turi, zoti, soni yoshi (poda tarkibi va harakati). Chorvachilikda mahsulot ishlab chiqarish uni tashish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasini tahlili, podani qayta to'ldirishning holati;
- xo'jalikda qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, yilqichilik va tuyachilik, cho'chqachilik, asalarichilik va baliqchilikning holati va rivojlanish istiqboli;
- xo'jalikda ozuqabop ekinlar ekiladigan yer salmog'i, ozuqa turlari ularning zahirasi, oziqa yetishitirish va ayrim ozuqa turlarini qayta ishlash texnologiyasining holati;
- xo'jalikda naslchilik xizmatlarining tavsifi, mutaxassislar soni va ularning malakasi, molxona, qo'shimcha chorvachilik inshootlari, avtotransport, sun'iy urug'lantirish shaxobchasi, aholiga yem-xashak sotadigan shaxobchalar, zootexnikaviy asbob-uskunalar, sut sog'ish va jun olish uskunolari, jixozlar, chorvadorlar uchun shaxsiy ximoyalalanish vositalarining mavjudligi. Parrandachilik fabrikalarida tegishli sexlarni ishlash holati;
- amaliyot davomida ilovaga ko'rsatilgan jadvallar to'ldiriladi. Zooveterinariya tadbirlar o'tkazish rejalari tuziladi. Chorvadorlar bilan suxbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.

5111015 (5140900) - KASBIY TA'LIMI (ZOOTEKNIYA) YO'NALISHI TALABALARINING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK AMALIYOTI

Amaliyot rejasi:

1. Pedagogik-psixologik amaliyotning vazifalari.
2. Pedagogik-psixologik amaliyotni tashkil etishning umumiy masalalari.

3. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji xodimlarining pedagogik-psixologik amaliyotida ishtiroki va faoliyati.
4. Amaliyot davrida talab etiladigan asosiy hujjatlar (bir juftlik dars tahlili, talabaning amaliyotda qatnashuvi, amaliyot davri namunaviy ish rejasi, amaliyot kundaligini yuritish, talaba hisobotiga oid me'yoriy hujjatlar, guruh va bir o'quvchiga alohida psixologik tavsifnoma va h.k.)

1.1. Pedagogik-psixologik amaliyotning vazifalari. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik amaliyotlar ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim sohasidir.

Oliy maktablar tarkibida tashkil etilgan «Kasbiy ta'lim» fakultetlari talaba yoshlarining o'qituvchilik va kasbiy ta'lim yo'nalishiga tayyorlashda hamda ularda pedagogik-psixologik bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliyot sinovlaridan o'tkazib iste'dodli mutaxassis bo'lib shakllanishida amaliyotdagi ta'lim-tarbiya katta ahamiyatga ega.

Shu jihatlarni hisobga olganda talaba yoshlarning pedagogik-psixologik amaliyotlar davridagi vazifalari ulkan.

Ular:

- oliy ta'lim jarayonida fanlardan olingan nazariy bilimlarni kengaytirish va mustahkamlab borish imkoni yaratildi;

- talaba-yoshlar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'z kasbiy mutaxassislikka oid ma'lumotlar olib, kelajakda o'qituvchi-murabbiy bo'lishga tayyorlanadi;

- talaba o'qituvchi bo'lib amaliyot o'tkazar ekan, u dars o'tish metodlari, uslublari, yangi pedagogik yondashuvlar, ta'limda muammoli, masofali, qiyosiy, modulli yo'llarni mashg'ulotlarida qo'llab, o'z kuch va imkoniyatlariga ishonch o'yg'otadi;

- talabalar kollejdagi guruh raxbari vazifalarida ishlab, o'zlaridagi pedagogik-psixologik muloqot madaniyatini ishga solib, o'quvchi yoshlar bilan demokratik, insonparvar munosabatlarni yo'lga quyib boradi;

- amaliyotchi talaba kollejdagi ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish bilan bir qatorda, o'quvchi yoshlarga individual va guruhli yondashuv, ularga shaxs sifatida qarab guruh tarkibi, psixologik va pedagogik dunyoqarashlari, yoshlarni jamoatchilik, mahalla va hovlilarda o'zlarini tutishlari, o'rtoqlari bilan o'zaro samimiy munosabatlarini o'rganadi;

- amaliyotchi pedagoglarga kolleji yoshlariga insonparvar demokratik tarbiya berishdek ulkan ijodiy ishga, o'qituvchilikka havas uyg'otish, mutaxassislik va pedagogik-psixologik bilimlarni qiziqib, intilib o'rganishda, amaliyot o'tayotgan guruhda psixologik-pedagogik muhitni bilishda va ularni kelgusida pedagogik faoliyatlarida qo'llashga imkoniyat yaratiladi;

- amaliyotchi pedagog-o'qituvchi pedagogik jamoada faoliyatini pedagogika asosida yo'rinqnomalarini o'zlashtirib borishlariga asos yaratiladi;

- amaliyotchi talaba guruh bilan ishlash davrida, o'quvchi yoshlar oilasi, otasonasi tarbiyachilari bilan tanishish davomida, maktabda ommaviy siyosiy, ilmiy mafkuraviy, ijtimoiy pedagogik yumushlarni muntazam tashkil etish lozimligiga

ko'nikmalar hosil qilishadi. Eng muhimi amaliyot davomida ilmiy hayot bilan yangi demokratik insonparvar va fuqarolik jamiyati qurish tajribasining bog'liqligi haqidagi tamoyillarni bajarish sinov tajribasi amlga oshadi. Shuningdek, amaliyotchi kollej ta'limida o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar, kompyuter, kodoskop, elektron pochta va shunga o'xshash boshqa soha bilimlari bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib o'zida ham shu sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Pedagogik amaliyot davomida talab ya'ni bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilari kollej mehnat faoliyati, kasbga doir yo'riqnomalar, tamoyillarni maqsad, vazifalarni didaktik talablarni, tarbiyaviy qonuniyatlarni yaxshi o'zlashtirib oladi, nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga erishib, ma'naviy boyib boradi.

1.2. Pedagogik-psixologik amaliyotni tashkil etishning umumiy asoslari.

O'zbekiston oliy maktablari qoshida tashkil etilgan kasbiy ta'lim o'qituvchi bakalavrlar tayyorlash davlat o'quv rejasi va dasturlarida pedagogik-psixologik amaliyotlar o'tkazishga maxsus soat va yo'riqnomalar ko'rsatilgan. Ularni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish davlat ta'lim mandartlarida rejalashtirilgan.

Birinchi bosqich – bunda amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish, asosan ishlab chiqarish korxonasi, muassasalarda amaliy mashg'ulot o'tish shart-sharoitlari haqida ma'lumotlar to'plash. Bu bosqichda talaba oliy maktab ma'ruzalarida, seminarlarida, laboratoriya mashg'ulotlarida, darsdan tashqari olgan nazariy qisman amaliy bilimlarini mustahkamlash, idrok qilish, tushunib olishga e'tiborli bo'lib, shu bilimlarni hayotda, ishlab chiqarishda, kollej ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashdek ehtiyojlari ham paydo bo'ladi. Ushbu bosqich davomida talabalar bilan amaliyotga bag'ishlangan amaliy nazariy konferensiyalar, seminar-majlislar kabi anjumanlarda ham faol qatnashishlari zarur bo'ladi.

Kasbiy ta'lim va o'qituvchilik mutaxassisliklarga tayyor bo'lish maqsadida talabalarga pedagogika psixologiya fanlari darslari davomida maxsus ma'ruza, yozma referat pedagogik-psixologik interaktiv mashqlar, pedagogik-psixologik mavzuga oid o'yin turlari o'tkazib, o'z-o'zlarini amaliy mashg'ulotlarga, o'quvchi yoshlar bilan muloqot va munosabatda bo'lish, jamoada ruhiy muhit yaratishga doir uslublarni mustahkamlab borish mashqlari amalga oshirilib boriladi.

Ikkinchi bosqich – pedagogik amaliyotning birinchi va ikkinchi kurslarida, kasbiy ta'lim bo'lajak o'qituvchilari o'z mutaxassisliklari (qishloq xo'jalik) yo'nalishlarida ishlab chiqarish korxona, xo'jalik va fabrikalarida amalga oshirib borishadi. Shu bosqichda talaba o'zini korxona jamoasining a'zosi sifatida tutib, moddiy ishlab chiqarish tartib qoidalar, korxonadagi texnik jihozlar, ular bilan munosabatda bo'lish, xizmat ko'rsatish va boshqa yumushlarni bajarib, o'z kasbiy mahoratini oshirishga poydevor yaratib boradi. Bu bosqichda talabada eng muhim jamoa va jamoatchilik munosabatlar sohasida, kasbiga mos, o'z shaxsini rivojlantirishga doir bilim, malaka va ko'nikmalari o'sib boradi.

Uchinchi bosqich – talab hayotida birinchi bor ishlab chiqarish jarayonlariga korxona, shirkat, fermer, veterinariya kichik korxonada mustaqil ishlash va mamlakatga moddiy manfaat keltirish imkoniyati paydo bo'ladi. Korxonaning perspektiv va joriy rejalarini bajarishga qatnashadi. Korxona jamoasining ma'naviy-

ma'rifiy, tarbiyaviy va xo'jalik-tashkilotchilik tadbirlarida qatnashib boradi, novator va ilg'or xodimlar, muhandis, mutaxassislar tajribalarini o'rganadilar, «Ustoz shogirdlik» maktabini o'taydi. Eng muhimi amaliyotchi talabalar ishlab chiqarish sifat va samaradorligiga erishish metodlar, tamoyillar, vositalardan ma'lumotlarni takomillashtiradilar. Xuddi shu bosqich talabani ishlab chiqarish jarayoniga o'z kasbiy mutaxassisligiga moslashuvini mustahkamlashiga erishiladi.

To'rtinchi bosqich – kasbiy ta'lim bo'lajak o'qituvchi o'quv-tarbiya ishlariga ya'ni akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda birinchi bor to'rt haftalik amaliyotga kirishadi. Bu amaliyotni qachon, qaysi vaqtda o'tkazilishi o'kuv rejalarida ta'kidlangan. Ushbu bosqichda talaba-amaliyotchi eng avvalo amaliyot o'tkazadigan muassasa, o'quvchilarning ichki tartib qoidalari, guruh va mutaxassislikka tayyorlanayotgan yosh o'smirlar, maktabning pedagogik jamoasi bilan tanishib, tegishli hujjatlarni o'rganishdan ish boshlaydi. O'qituvchi murabbiylar o'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadilar, darslarga kirib tajriba ortiradilar. O'qituvchining dars reja va tarbiyaviy tadbirlar, kalendar ishlari bilan tanishib, lozim bo'lganlarini o'zlariga birlashtirilgan guruhlariga oid qismlarini ko'chirib, shaxsiy rejalarini tuzib oladilar. Dars mashg'ulotlarida qatnashib, uni tahlil qilib, o'z fikr va qarashlarini bayon etadilar. Darsni baholaydi. Guruh va sinf raxbari sifatida ham faoliyat yuritib, ilg'or tajribalarni o'rganishda o'qituvchi shaxslarni atroflicha o'rganib, ularga har tomonlama ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini rivojlantirib boradilar.

Beshinchi bosqich – pedagogik-psixologik amaliyotning so'ngi, hal qiluvchi, zaruriy bosqichi bo'lib, bu davrda talaba – amaliyotchi kollejdagi sakkiz hafta davomida mustaqil o'qituvchi sifatida, lavozimida, zarur holda shartnoma asosida oylik maosh olib ishlashi ham mumkin bo'ladi. Bu bosqich talaba – amaliyotchining kasbiy ta'lim va bo'lajak o'qituvchilik qobiliyatiga tayyor bo'lishini belgilaydi. Ular mustaqil holda dars va darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazishadi, tegishli hujjatlarni yuritishadi, hisobotlar qilishadi, kollej yoshlarini tanlagan kasblariga qiziqtirish va yo'naltirishdek sharaflil ishlarni tizimli bajaradilar. Bu talaba – amaliyotchining 4-5 bosqich amaliyotini samarali olib borishini ko'zda tutadi. Pedagogik va kasbiy mahoratni qanchalik egallab olganligini yaqqol belgilab beradi. Eng muhimi talaba-amaliyotchi o'z kasbi va o'qituvchilik sohasiga oid pedagogik texnologiya, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar talablari asosida yondashuvlarni chuqur egallaydi.

Pedagogik amaliyot talaba o'qituvchidan ko'p narsa talab etadi. Jumladan:

1. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilari kechagi maktab o'quvchisi emas. Ular yoshi, individual xususiyatlari, psixologik, fiziologik, shaxsiy rivojlanishlari bilan umumta'lim maktab o'quvchilaridan keskin farq qiladi. Ularning aksariyati o'z yo'li, kasbini deyarli tanlagan, iqtidorligi ham yaxshigina. Bu xususiyatlar amaliyotchi-talabadan fanni yaxshi o'zlashtirishni, pedagogik-psixologik o'qitish va tarbiyalash metodlarini puxta bilishni, kollej yoshlarini o'quvchi talaba deb emas, o'zidek shaxs, shaxs hamkorlikka muhtoj inson deb hurmatlaydigan xislatli bo'lishini talab etadi.

2. Kollej va litseylarda o'rganiladigan fanlarning ko'лами keng, mundariyasi boy, mazmuni sarmahsul tuzilishi xilma-xil. Demak, amaliyotchi bo'lajak pedagog mana shu katta sinov ishga tayyor bo'lishi uchun nafaqat o'z fani – mutaxassisligini, balki kollejda o'rganiladigan fanlarning asoslarini, muhim tushunchalarni, ahamiyatini ham yaxshi anglab yetgan bo'lishi kerak. Bu unga o'z fanini, ma'ruzalarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganishi kerak. Bu metod amaliyotchini kollej yoshlari ko'z o'ngida bilim doirasi, dunyoqarashi keng ekanligini ko'rsatib, obru-e'tiborini oshishiga zamin tayyorlaydi. Pedagog uchun jamoadagi obrusi – yetakchi manba hisoblanadi.

3. Xullas pedagogik-psixologik amaliyotni tashkil etishning va bajarishning muhim yo'li amaliyotchi o'zini bu sharaflı ishga qanday tayyorlaganligiga bog'liq. Tubdan isloh qilinayotgan ta'lim tizimimiz maqsad va vazifalarini qanchalik chuqur anglab yetganiga bog'liq.

1.3. Akademik litsey va kasb-hunar kollej xodimlarining pedagogik-psixologik amaliyotda ishtiroki. Pedagogik jamoaning o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlariga munosabati, yoshlarga ustozlik qilish muloqotlari, ularning o'zaro pedagogik hamkorlik qilishlari maqsadga qaratilganligi pedagogik faoliyatda samaradorlikni ta'minlaydi. Talab amaliyotchi akademik litseyoda yoi kasb-hunar kollejiga kirib kelishi, uning binosi, hovlisi, ichki va tashqi jihozlari, o'quv vositalari, o'quv moddiy bazasi, xona tizimi, ustaxonalari, kutubxonalari, o'quv xonalarining jihozlari va orgtexnika bilan jihozlanganligi va boshqa jihatlari qiziqtiradi va amaliyotga ilhomlantiradi.

Kollej direktori va uning o'rinbosari o'qituvchi-tarbiyachilar ishlab chiqarish ustalari yordamchi xodimlar bilan amaliyotchilar o'rtasidagi birinchi bor tanishuv uchrashuvlar ham amaliyot sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasasining ruhiy muhiti amaliyot o'tkazishda yetakchilik qiladi. Talabalar amaliyotga borgan ta'lim muassasasi jamoasi faoliyatini maxsus qayd qilib, jamlab borib, amaliyot yakunida talaba-amaliyotchiga maxsus kengaytirilgan tavsifnoma-xarakteristika yozadi. Ushbu hujjat adolatli, demokratik va inson-shaxsparvarlik nuqtai-nazarda tuzilsa, talab bo'lajak o'qituvchilik kasbini uzil-kesil tanlab ish ko'rishga ko'proq ahamiyatli bo'ladi.

Amaliyotga kirgan talabaning butun amaliyot vaqti davomida ko'zda tutilgan ishlari halol va qalb amri bilan amalga oshishi asosiy burch hisoblanadi. Darslarga va darsdan tashqari mashg'ulotlarga har bir tarbiya tadbiriga qunt bilan asosiy o'qituvchi sifatida berilib tayyorgarlik ko'rish lozim. Shuningdek, har bir mashg'ulotlarni qiziqarli, mazmunli ilmiy asoslangan tamoyillarni o'tishida faol ishtirok etib borish muhim hisoblanadi.

Amaliyotchi talaba ta'lim-tarbiya jarayonida har bir mashg'ulotga o'zidagi mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yaxshi fazilatlarini ishga solib, iymon va vijdon bilan harakat qilib, kollej ma'muriyatining ishonchiga sazovor bo'lishi ham kerak.

Agar talaba-amaliyotchi amaliyot davomida ichki tartib qoida amaliyotiga doir talab yo'riqnomalarni bajarmasa, ma'muriyat amaliyot raxbari va uslubchi murabbiylar talabani amaliyot o'tashdan chetlashtiradi.

Amaliyotdan chetlashtirilgan talab faoliyati institut fakultetda, muhokama qilinib, qaror natijasiga ko'ra uni qayta yangilab amaliyotni o'tashga majbur etiladi.

O'QITUVCHI RAXBARNING VAZIFALARI

O'qitish sohasida ma'lumki ta'lim-tarbiya sohasi ishida o'qituvchining o'rni va xizmati o'lgan. Uning ahamiyatini hech bir o'quv vositalar, darsli, o'quv qo'llanmalar bilan qiyoslash mumkin emas. O'qituvchi ta'lim-tarbiya yetakchisi, o'quvchi shaxslar qalb me'mori. U jamiyatda eng ilg'or ijodkor nufuzli shaxs O'zbekiston o'z o'qituvchilariga doimo g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Kollej o'qituvchisi amaliyotga kelgan bo'lajak o'qituvchilarga ana shu aytilgan sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda bosh-qosh bo'lgan. U o'zidagi bor bilim, malaka va ko'nikmani mahoratlilikni o'qitish tarbiyalash metodlari tamoyillari vositalari bilan amaliyotchi talabaga yosh o'qituvchiga amaliy yordam berishi pedagogik talabidir.

Demak ushbu pedagogik-psixologik talablarni bajarishga mas'ul o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlab o'z bilim mahoratini oshirib boradi. Amaliyotchi talabada «yaxshi murabbiy» degan insoniy tuyg'uni shakllantirishiga yordam beradi.

1. Tarbiya sohasida – o'qituvchi raxbar maktab jamoasida o'tkaziladigan tadbirlar tarbiyaviy mashg'ulotlar rejasi o'tkazilish oldida uning borishiga doir ma'lumotli bo'lib, amaliyotchi talabani unga tayyorlaydi. Sinf (guruh) jamoasida amaliyotchi o'tkaziladigan tarbiyaviy jarayonni kuzatadi, baholaydi, ularni yangi ijodlarga ilhomdantiradi. Amaliyotchi talaba guruhda o'quvchi shaxsini o'rganish, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish sohasida ishlash davomida rang-barang metodlar qo'llaydi. O'qituvchi raxbar uning ssenariysini tuzishda ko'mak beradi.

2. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalar o'qituvchi faqat ta'lim-tarbiya ishi mas'uli bo'lib qolmay, u jamoa arbobi hamdir. U ishlab chiqarish korxonalari, muassasalari, uyushma va fermer xo'jaliklar, mahalla-guzar, hovlilar ahvolini ham keng o'rganib, avvalo kollej yoshlariga, so'ngra amaliyotga kelgan bo'lajak o'qituvchilarga axborotnoma, yo'riqnoma, pand-nasihatlar beradi. Aholi o'rtasida:

- pedagogik bilimlar targ'iboti;
- pedagogik-psixologik, xalq universitetlari faoliyati;
- ota-onalar ma'ruza klubi ishi;
- aholi uchun radio eshittirishlar va h.k. ishlarda faol ishtirok etib, amaliyotchi talabalarni o'z vaqtida shu sohalarida faol qatnashuvlarni tashkil etadi;
- metodik (uslubiy) yo'nalishlar – o'qituvchi raxbar o'z zimmasidagi o'qitish va tarbiyalash sohasidagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib borishi uchun shu boradagi o'z ma'lumotlarini muntazam oshirib borishi talab etiladi.

O'qituvchi o'z fani va uni o'qitish u orqali shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish metodlarini doimo boyitib borishi:

- o'tilayotgan shaxslar sihat-salomatligiga tizimli yondoshib g'amxo'rlik qilishi;

- talaba o'qituvchi individual va guruhli psixologik muhitni o'rganib, uni yaxshi sifatlarda tashkil eta borishi – bolalarni nafasatshunoslik, ijod qilishni rivojlantirib iqtidorlilarini tanlash va ular bilan ishlashni rejali yo'lga qo'yishi, xullas u o'quvchisini ham amaliyotchi talabni ham bir daqiqa kuzatuvdan chetda

qolmasligiga erishib, faoliyatda bo'lishi pedagogik-psixologik mehnatni samaradorligini ta'minlaydi.

Qoramolchilik faniga oid ma'lumotlar to'plash jadvallari.

1-jadval

Fermer xo'jaligida hisobot yilida ozuqa balansi

№	Ozuqa turlari	Talab			Haqiqiy			Ta'minlanga nligi, %		
		Miqdori, t	Ozuqa birilgi, s	Protein, s	Miqdori, t	Ozuqa birilgi, s	Protein, s	Miqdori	Ozuqa birilgi	Protein
1	Yem oзуqalar, shundan: Kepak Kunjara									
2	Dag'al oзуqalar, shundan: Bug'doy samoni Beda pichani									
3	Shirali oзуqalar, shundan: Senaj Silos									
4	Ildizmevali oзуqalar									
JAMI										

Fermar xo'jaligida hisobot yilida poda harakati

№	Yosh va jins bo'yicha guruhlar	Kirim					Chiqim					
		Yil boshida mollar bosh soni	Buzoq olish	Kichik guruhlardan ko'chirish	Sotib olish	Jami yil boshidagi bilan birgalikda	Katta guruhlarga o'tkazish	Naslli mollar sotish	Go'shtga topshirish		JAMI	Yil oxirida mollar bosh soni
									Bosh	Tirik vazn, kg		
1	Naslli buqalar											
2	Sigirlar											
3	G'unajinlar											
4	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalar											
5	1 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalar											
6	2 yoshdan katta buqachalar											
7	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan buqachalar											
8	1 yoshgacha bo'lgan buqachalar											
9	2 yoshdan katta ho'kizlar											
10	2 yoshgacha bo'lgan ho'kizchalar											
11	Buzoqlar: A) urg'ochi B) erkak											
	JAMI											

Fermer xo'jaligida hisobot yilida podani tarkibi

№	Yoshi va jinsi bo'yicha guruhlar	Tashkil etadi	
		Bosh	%
1	Naslli buqalar		
2	Sigirlar		
3	G'unojinlar		
4	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalar		
5	1 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalar		
6	2 yoshdan katta buqachalar		
7	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan buqachalar		
8	1 yoshgacha bo'lgan buqachalar		
9	2 yoshdan katta ho'kizlar		
10	2 yoshgacha bo'lgan ho'kizchalar		
11	Puchak qilingan sishirlar		
12	Buzoqlar: a) urg'ochi b) erkak		
	JAMI:		

Fermer xo'jaligida hisobot yilida qoramolchilik mahsulotlarini sotish bo'yicha moliyaviy natijalar (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Mahsulot turi		
		Sut	Go'sht	Boshqa maxsulotlar
1	Umumiy tannarx			
2	Daromad			
3	Sof foyda			
4	Zarar			
5	Rentabellik darajasi, %			

Parrandachilik faniga oid ma'lumotlar to'plami jadvali

1-jadval

*Parrandachilik xo'jaliklarining yer maydoni
(uch yillik ma'lumotlar)*

№	Ko'rsatkichlar	20____ yil		20____ yil		20____ yil	
		Amalda	O'tgan yilga nisbatan, %	Amalda	O'tgan yilga nisbatan, %	Amalda	O'tgan yilga nisbatan, %
1	Umumiy yer maydoni, <i>ga</i>						
2	Parranda mahsuloti ishlab chiqarishga mo'l-jallangan yer maydoni, <i>ga</i>						
3	Ko'p yillik o'simliklar, <i>ga</i>						
4	Bir yillik o'simlik, <i>ga</i> Beda: Makkajo'huri: Bug'doy: Poliz ekinlar: Boshqa ekinlar:						
5	Ko'p yillik ekinlar, <i>ga</i>						
JAMI							

Xo'jalikdagi mavjud parranda zotlari, liniyalari, krosslari bo'yicha talabalar bilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar

№	Zotlarning liniyalarning va krosrlarning nomi	Qaysi zotlardan kelib chiqqan	Tasdiqlangan yili	Mualliflari, tashkildotlar nomi	Mahsulotdorlik yoʻnalishi	Yaratilish usuli	Mahsulotdorlik koʻrsatkichlari							
							Oʻrtacha tirik vazni, kg	Tuxumdorlik, %	Tuxumning oʻrtacha ogʻirligi, g	10 dona tuxumga yem sarfi, kg	1 kg tirik vazn uchun yem sarfi, kg	Oʻsish koʻrsatkichi	Mutloq kunlik nisbiy, kun/kg	Mahsulot olishda foydali muddat
1														
2														
3														
4														

*Parrandachilik xo'jaliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari
(uch yillik ma'lumotlar)*

№	Ko'rsatkichlar	20____ yil			20____ yil			20____ yil		
		Amalda	O'sish %	Ko'paygan yoki kamaygan, ±	Amalda	O'sish %	Ko'paygan yoki kamaygan, ±	Amalda	O'sish %	Ko'paygan yoki kamaygan, ±
1	Xo'jalik nomi									
1)	Tuxum, <i>ming dona</i>									
2)	Parrandalarning o'sishi, s									
3)	Inkubatsiyaga qo'yilgan tuxum, <i>ming dona</i>									
4)	Tuxumlardan jo'ja chiqishi, %									
5)	O'stirish uchun qoldirilgan, <i>ming bosh</i>									
6)	Pat va par olish, s									

*Parrandachilik xo'jaliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlar
(uch yillik ma'lumotlar)*

№	Ko'rsatkichlar	20____ yil			20____ yil			20____ yil		
		Amalda	O'sish %	Ko'paygan yoki kamaygan, ±	Amalda	O'sish %	Ko'paygan yoki kamaygan, ±	Amalda	O'sish %	Ko'paygan yoki kamaygan, ±
1	Xo'jalikning nomi									
1)	1000 dona tuxum tannarxi, <i>m.so'm</i>									
2)	1 s parranda go'shti tannarxi, <i>m.so'm</i>									
3)	Tuxum sotish, <i>ming dona</i>									
4)	Parranda go'shti sotish, <i>s</i>									
5)	100 dona tuxumga omixta yem sarfi, <i>kg</i>									
6)	1 s tirik vaznga omixta yem sarfi, <i>s</i>									
7)	1000 dona tuxum ishlab chiqarishga bo'lgan xarajat, <i>odam/soat</i>									
8)	1 s qo'shimcha tirik vazn ishlab chiqarishga bo'lgan xarajat, <i>odam/soat</i>									

*Parrandalarning bosh soni va mahsulotdorlik ko'rsatkichlari
(uch yillik ma'lumotlar)*

№	Ko'rsatkichlar	Parrandalar bosh soni						Mahsulotdorlik ko'rsatkichlari						Saqlanuvchanligi, %
		20__yil		20__yil		20__yil		20__yil		20__yil		20__yil		
		Amalda	%	Amalda	%	Amalda	%	Amalda	%	Amalda	%	Amalda	%	
1	Xo'jalik nomi													
1)	Tovuqlar													
2)	Jo'jalar													
3)	Nasldor xo'rozlar													
4)	Makiyonlar													
5)	Boshqa xo'jaliklardan olib kelingan													

Eslatma: 1) Amaliyot o'tash jarayonida o'rganiladigan masalalarni kengaytirish yoki qisqartirish mumkin.
2) Parrandachilik xo'jaliklarida parrandalarni ozqlantirish retseptlari ilova shaklda to'liq berilishi kerak.

SUTCHILIK FANIGA OID MA'LUMOTLAR TO'PLASH JADVALI.

1-jadval

Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari

№	Mahsulot nomi	Ishlab chiqarish	
		Miqdori, tonna	%
1	Qabul qilingan xom-ashyo sut shundan: qayta ishlanmoqda		
2	Iste'mol suti		
3	Nordon sut mahsulotlari (qatiq, kefir, suzma, smetana va h.k)		
4	Qaymoq		
5	Saryog'		
6	Pishloq		
7	Boshqa mahsulotlar		

*Sutni qayta ishlaydigan korxonaning hisobot yilidagi
moliyaviy natijalari (mln. so'm)*

№	Ko'rsatkichlar	Mahsulot turlari				
		Iste'mol suti	Nordon sut mahsulotlari, (qatiq, kefir, sut)	Saryog'	Pishloq	Boshqa mahsulotlar
1	Umumiy tan- narx					
2	Daromad					
3	Sof foyda					
4	Zarar					
5	Rentabellik darajasi, %					

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK
FAKULTETI 5620600-ZOOTEKNIYA TA'LIM YO'NALISHI
_____GURUH TALABASI

_____ning

MALAKAVIY AMALIYOTI BO'YICHA

KUNDALIK DAFTARI

Amaliyot joyi _____
(xo'jalik, viloyat, tuman, korxona nomi)

Boshlandi: “_____” _____ 20__ y.

Tugallandi: “_____” _____ 20__ y.

SAMARQAND – 20 _____

Talaba _____ ning malakaviy amaliyot davomida bajargan ishlari

№	Bajarilgan ishlar turi	Soni
1	Xo'jalikning jug'rofiy va ekologik sharoiti bilan tanishish.	
2	Xo'jalikning ohirgi uch yillik iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatini tahlili.	
3	Xo'jalikning chorvachilik sohasini tahlil qilish (poda tarkibi va harakati).	
4	Ozuqa zahirasini aniqlash.	
5	Birlamchi zootexnikaviy hisob-kitob ishlarini yuritishda ishtirok etish.	
6	Naslchilik xujjatlarini yuritish va naslli mollarni kompleks baholash.	
7	Sun'iy urug'lantirish shaxobchasi faoliyati bilan tanishish.	
8	Urug'ni baholash va urug'lantirish tadbiriga qatnashish.	
9	Nazorat sog'im va nazorat oziqlantirish o'tkazish.	
10	Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini tahlili.	
11	Chorvachilik mahsulotlariga birlamchi ishlov berish, tashish, saqlash va qayta ishlash texnologiyalarining tahlili.	
12	Naslli hayvonlarni sotish va sotib olish tadbiriga qatnashish.	
13	So'yish punktlarining ishi bilan tanishish.	
14	Zootexnikaviy tadbirlarning rejalarini tuzish.	
15	Ma'ruza va suxbatlar o'tkazish.	

